

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAYDAXMEDOVA NIGORA SULAYMONOVNA**

**MUHAMMAD YUSUF IJODINI**  
**UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMIDA**  
**O‘RGATISH**

(metodik qo‘llanma)

**NAMANGAN-2024**

Ushbu metodik qo‘llanma O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligi bo‘yicha. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Farmoyishi 2024 -yil 14-fevral n 90-f. Farmoyish ijrosi. Uzlüksiz ta‘lim tizimida shoir ijodini o‘rgatish. DTS talablari asosida yozilgan, oliy ta‘lim kunduzgi ta‘lim shakli 2-kurs magistrlar uchun 70230104 – Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti). Yangi o‘zbek adabiyoti muammolari. 70230104 – Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti). Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar: Zamonaviy o‘zbek she‘riyati va modernizm. 60230700 – Amaliy filologiya “Zamonaviy adabiy jarayon” fanlari bo‘yicha. Amaliy mashg‘ulot: Muhammad Yusuf she‘riyatida xalqona ohang mavzularini yoritishda hamda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar jumladan, Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab, adabiyot to‘garaklari va sinfdan tashqari o‘qish jarayonlarida shoir ijodini o‘rgatish hisobga olgan holda yozilgan.

**Tuzuvchi:**

**N.Saydaxmedova**

NamDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida kata o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

**K. Abdullayev**

Namangan davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida Ilmiy kengashining 2024-yil 19-oktyabrda 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

## MUNDARIJA:

1. KIRISH.....	4
2. Zamonaviy o‘zbek she’riyati va modernizm.....	5
3. Muhammad Yusuf she’riyatida xalqona ohang.....	17
4. PIRLS TOPSHIRIQLARI “BOBOLARIM YOTAR SAJDAGOHIM” (4-SINF) .....	19
5. MUHAMMAD YUSUFNING “VATANIM”, “MEHR QOLUR” SHE’RLARI (8-SINF) .....	30
4. STEAM “LOLAQIZG’ALDOQ” (7-SINF).....	42
6. “BINAR” MA’RUZASI (8-SINF).....	48
7. MUHAMMAD YUSUF IJODI BO‘YICHA “SAYOHAT” DARSII (8-9-SINF) .....	61
8. “O‘RMONDAGI MUSHOIRA” DRAMA TO‘GARAGI UCHUN ISHLANMA .....	69
9. “JAYRON” SHE’RINI TAHLIL QILISH (SINF DAN TASHQARI O‘QISH) .....	79

## KIRISH

Ushbu dars ishlanmalar 2019-yil 29 -apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>1</sup> farmoni, 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-iyuldagi 539-son “Andijon shahrida Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etish to‘g‘risida” keltirilgan qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hamda, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilliga tayyorgarlik ko‘rish va umumiy o‘rta ta’lim maktabi, shoir nomidagi ijod maktabi o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Dasturda berilgan shoir ijodini o‘rgatishda va o‘qituvchi kasbiy mahoratini muntazam oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/4312785>

**MARUZA: ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI VA MODERNIZM.  
(MUHAMMAD YUSUF IJODI MISOLIDA).**

Reja:

1. Muhammad Yusuf hayoti va ijodi.
2. Shoir she’rlarida o‘zlashma so‘zlarning qo‘llanilishi
3. Shoir she’rlarida she’riyatida sinesteziya hodisasi.
4. Shoir she’rlarida talmeh san’ati
5. Shoir hayoti va she’rlarini o‘rgatish metodlari

**Tayanch so‘z va iboralar:** Vatan, izohli lug‘at, manglay, peshona, erksizlik, sinesteziya, kutilmagan obraz, favkulodda ifoda, metafora, metanomiya, talmeh.

Muhammad Yusuf – istiqlol davri she’riyati an’alarining davomchisi O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. U Rus tili va adabiyoti institutini 1978 yilda tamomlagan. Muhammad Yusuf 1978-1980-yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980-1986 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992 yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyatida, «O‘zbekiston ovozi» gazetasida ishladi. Umrining so‘nggi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi. U 1998 yili O‘zbekiston xalq shoiri unvoni bilan mukofotlangandi. Shoir 2001-yil 31-iyulda 47 yoshida Ellikqal’a tumanida vafot etdi. O‘shandan beri oradan o‘n yetti yil o‘tgan bo‘lsa ham, shoir lirik merosi va lirik qahramoni tabiatiga bo‘lgan qiziqish zinhor so‘nmadi. Ma’lumki, Muhammad Yusufning dastlabki she’rlari «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida 1976 yilda e’lon qilingandi. Biroq, ilk she’rlar to‘plami 1985 yili «Tanish teraklar» nomi bilan chop etildi. Keyingi yillarda «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko‘nglimda bir yor»

(1991), «Bevafo ko‘p ekan», «Yolg‘onchi yor» (1993), «Erka kiyik» (1995), «Osmonimga olib ketaman» (1998), «Ulug‘imsan, vatanim» (2004), “Saylanma” (2014) kabi she‘riy kitoblari nashr etilgan. Bugungi kunda Respublikamizda Muxammad Yusuf jamgarmasi faoliyat olib bormoqda. Uning raisasi shoirning rafiqasi Nazira as-Salomdir. Iste‘dodli qalam sohiblarimizdan biri - Muhammad Yusuf rostgo‘y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo‘shiq to‘qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she‘rlari ravon va soddaligi bilan xalqonadir. Quyidagi jadvalda biz shoir merosi jamlangan asosiy kitoblarni aks ettirishga urindik: Muhammad Yusuf lirikasi haqida gapirganda uning she‘rlaridagi bolalarcha beg‘uborlik, jumlalardagi hamma uchun tushunarli bo‘lgan soddalik kishini o‘ziga beixtiyor jalb etadi. Kundalik turmushimizda ishlatiladigan oddiy so‘zlarni xuddi munchoqqa tergandek terib bayon qilinishi, she‘rning soddaligini, hammaga O‘zbekiston xalq shoiri M. Yusuf she‘riy to‘plamlari “Bulbulga gapim bor” (1987 y) “Iltijo” (1988 y) “Uyqudagi qiz” (1989 y) “Tanish teraklar” to‘plami (1985 y) «Halima enam allalari» (1989 y) «Ko‘nglimda bir yor» (1991 y) «Bevafo ko‘p ekan» (1993y) «Yolg‘onchi yor» (1993y) «Erka kiyik» (1995y) «Osmonimga olib ketaman» (1998), «Ulug‘imsan, vatanim» (2004 y) “Saylanma” (2014y) 9 tushunarli bo‘lishini, xalqchilligini ta‘minlaydi va tinglovchini shoirning ichki olamiga olib ketadi. Muhammad Yusuf she‘r va shoirlik xaqida quyidagi gaplarni aytgandi: “Men shoirman degan zotdan qo‘rqing. Chunki undan har baloni kutish mumkin.. Haqiqiy shoir hech qachon iddao bilan o‘zini tanishtirmaydi. Aksincha, uni allaqachon xalq tanlab, saylab olgan bo‘ladi... Aslida, she‘r ham odamdek gap. Uning yuzi, ko‘zi, kiyofasi va libosi bor. Ba‘zi she‘rlar satang ayollardek yasangan. Pardozi-andozni ham joyiga quygan. Ularda birgina yetishmovchilik bor, xolos. Hissiy qabul qilishimiz qanchalik mukammal bo‘lsa, bu olam shuncha go‘zal bo‘lib tuyuladi va uni o‘zimizdan shuncha ajrata olamiz”<sup>2</sup>. Bu esa badiiy

---

<sup>2</sup> [www.gum.cr.ni.poicbn-a](http://www.gum.cr.ni.poicbn-a).

asardagi tashqi ta'sir va ichki kechinma munosabatlari natijasida so'zning turi poetik vazifalari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, "tuproq" so'zining Muhammad Yusuf she'rlaridagi ma'no tovlanmalarini kuzatish mumkin:

Bildimki, baridan ulug'im o'zing,  
Bildimki, yaqini shu tuproq menga<sup>3</sup>

Mazkur she'rda "tuproq" so'zi "Vatah" ma'nosida kelyapti. Lekin uning ma'no doirasida lirik qahramon shu yerda yashayotganligi, uning uchun aziz misradagi boshqa so'zlar bilan mazmuniy munosabatga kirishganda yaqqol ochilgan. "Baridan ulug'im" jumlasida esa tuproq so'zidan anglangan vatanparvarlik g'oyasining eng yuqori darajasidagi namoyon bo'lishidir. O'zbek tilining izohli lug'atida "tuproq" ko'chma ma'noda ma'lum yurt, o'lka, mamlakatga qarashli hudud ma'nolarida qo'llanishi aytilgan holda, shoir ularga yangi vazifasini ham kashf etgan.<sup>4</sup>

Mendan nima qolar,  
Ikki misra she'r.  
Ikki sandiq kitob,  
Bir uyum tuproq.

"Tuproq" so'zi bu yerda inson hayotining so'nggi nuqtasi, tiriklar e'zozlaydigan hayotiy tajribalar yig'indisi, hayotsevarlik g'oyasini anglatadigan badiiy detal bo'lib kelgan, bundan tashqari, "tuproq" inson hayotidagi o'tkinchi umrdan boqiy olamga, ma'naviy hayotga o'tish nuqtasi hamdir. M.Yusuf ijodining o'ziga xos jihatlaridan yana biri, mustaqil holda ma'no anglatadigan so'zlar shoir ijod mahsuli tartibiga kirib borgan sari o'zining yangi ma'no qirralari bilan tovlanadi. Fikrimizning isboti tariqasida "Qizg'aldoq" she'ri misolida ko'raylik.

Qizg'aldog'im qirdan bo'lak koshonang yo'q,  
Kokil yoysang, yerdan bo'lak tosh oynang yo'q.

---

<sup>3</sup> Yusuf Muhammad, Xalq bo'l, elim. – T., "O'zbekiston", 2007. - B. 55.

<sup>4</sup> O'zbek tilining izoxli lug'ati: 5 tomlik. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat tili milliy nashriyoti. A-tom, 2006. - B . 192

O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,  
Peshonangdan o'pay desam peshonang yo'q.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”<sup>5</sup> da “peshona” so‘zi (manglay, peshona) dastlab anatomik atama, yuzning qoshgacha bo‘lgan qismi, manglay. Ko‘chma ma’noda diniy tasavvurlarga ko‘ra qismat, taqdir. Shoir ijodida (“Qizg‘aldoq” she’ri) “peshona” so‘zi shaxs, baxt ma’nolarida kelib, lirik qahramonning xoksor, samimiy, ko‘ngli yarim yorning ko‘nglini olish, erkalash niyatlarini ifodalasa, aynan shu so‘zning bir ma’nosi “Cho‘loq turna” she’rida namoyon bo‘ladi:

Keldingmi, kir, ostonada,  
Cho‘chib turma.  
Bor ekan-da, peshonada,  
Cho‘loq turna.<sup>6</sup>

Bu yerda “peshona” so‘zi taqdiri azal, ko‘rgilik, hayotiylik, tabiatning qonuni ma’nosida kelgan, lirik qahramon hayotida erksizlikka, chorasizlikka rozi bo‘lyapti. O‘zbek tlining izohli lug‘atida “ostona” (kiraverish, bo‘sag‘a, arafa, shoh saroyi, dahna). Keyin esa ko‘chma ma’noda: uy, xonadon, dargoh.

Qadring bilgan, darding bilgan, ayt, kiming bor?..  
Kelib ketar bahor senga bevafoyor.  
Go‘zalsanki, senga bari gullar ag‘yor,  
Oh ursang, bir ohing tinglar ostonangyo‘q...<sup>7</sup>

M.Yusufning “Qizg‘aldoq” she’rida “ostona” so‘zi Vatan, ota-ona, qadrdon-do‘st, qadrdon uy, ma’juziy sadoqatli yor ma’nosini ifodalagan. Aynan “ostona” so‘zi shorning “Cho‘loq turna” she’rida: “Ostonada cho‘chib turma” misrasi, iboraning semantik doirasini kengaytirgan. M.Yusuf badiiy so‘z qo‘llashda uning kontekstdagi vazifasidan kelib chiqib, yangi ma’noviy vazifalar yuklagan. Ma’lumki, har qanday metafora mohiyatidagi obrazli ko‘chim asosida

---

<sup>5</sup> Yusuf, Muhammad. Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar. - T.; “Sharq”, 2005. - B. 263.

<sup>6</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 tomlik. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat tili milliy nashriyoti. 5 tomlik. 3-tom, 2006. - B. 252.

<sup>7</sup> Yusuf, Muhammad. Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar. - T.; “Sharq”, 2005. - B. 243.



assotsiativlik yotadi. Bu xodisa sinesteziyada sezgilararo aloqadorlik asosida ro'y beradi. Ya'ni, bir sezgi a'zosiga xos belgilarning boshqa sezgi a'zosi bilan his qilish, sezish sinesteziyani yuzaga keltiradi. Masalan, ranglarni, tovushsiz narsalarni tinglash (X.Davron: "qon rangiga quloq sol"; R.Parfi: "jaranglaydi jarangsiz kumush"), tovush (nutq)ning ranglar yoki maza-ta'm bilan assotsiativ adoqadorligi (shirin so'z) kabilar. Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusufning ilk she'riy to'plami "Tanish teraklar" kitobidagi quyidagi misralar shoirning deyarli barcha muhlislariga yod bo'lib ketgan:

Osmon cho'kib qoldi bu oqshom,

Yulduzlardan yog'ildi bir sas.

Bir mahalla nigohni ko'rdim:

Sevish kerak, yashash shart emas.

("Osmon cho'kib qoldi bu oqshom...")

Shoirlik kahramon boshdan kechirayotgan holat - sevgilisidan umrbod ayrilayotganini his qilib, dunyo ko'ziga tor ko'rinayotgan oshiq kechinmalarini ifodalashda sinesteziyadan foydalanadi. O'ta kuchli kechinmalarni boshdan kechirayotgan insonda tuyg'ular, sezgi a'zolarining signallari ham aralashib, qorishib ketishi tabiiy hol. Shoir odatda "tinglanadigan" sas (sado, ovoz) haqida "Yulduzlardan yog'ildi bir sas" deb yozadi, ya'ni bunda lirik qahramon "sas"ni "ko'rib turibdi". She'ning keyingi misralarida sinesteziyaga xos ifoda davom etadi: lirik qahramon bir mahalla nigohni nafaqat ko'rib turibdi, ularni eshityapti ham (Sevish kerak, yashash shart emas). Mazkur she'rdagi sas (ovoz)ning yog'ilishi, nigohning so'zlashi birlamchi sinesteziya bo'lib, inson sezgi a'zolariga hos xususiyatlarning uyg'unlashuvi, qorishiqiligiga asoslangandir. Muhammad Yusuf she'riyatida bu kabi sinesteziyaga asoslangan metaforalarni ko'plab uchratish mumkin: **"shirin kalom ("Turnalar")**, **"shirin-shirin qarashlar"** ("Sir"), **"ko'zlarimda jaranglab kulgu"** ("Mana shu – men tug'ilgan go'sha"), **ishirin jilmayish"** ("Muxabbat"), "Zaynabning nigohi jonimni cho'qir" ("Kinoga kirmayman") va b. Ruhiy kechinmalarni ifodalashda sezgi a'zolariga

aloqador soʻzlar maʼnosining oʻzgarishini A.K.Svistova ikkilamchi sinesteziya deb ataydi.<sup>8</sup> Masalan, shirin azob, sara tuygʻu kabi. Ikkilamchi: sinesteziyaga asoslangan metafora badiiy nutqning ifoda vositalarini boyitishga xizmat qiladi. Badiiy nutqdagi sinesteziya tildagi qoliplardan chiqish, umumtil semantikasini yangilash va boyitish uchun yaxshi imkoniyat sanaladi. Sinesteziya natijasida hamisha kutilmagan obraz, favqulodda ifoda yuzaga keladi. Shoir Muhammad Yusuf sheʼriyatida ikkilamchi sinesteziya natijasida paydo boʻlgan bir qator obrazli ifodalarni uchratishimiz mumkin. Shoirning “Sevgi sadosi” sheʼrida quyidagi misralarni oʻqiymiz:

Siz achchq qismatim, siz iztirobim,  
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim...  
...Siz oʻsha – orzusi oydan oydin qiz,  
Siz oʻsha – kulgusi qoʻngʻirogʻimsiz.<sup>9</sup>

Koʻrib turganimizdek, “qismat”, “dard” va “azob” kabi tushunchalarning xususiyatlari maza-taʼm bilan bogliq “achchiq”, “shirin” soʻzlari bilan ifodalangan. Orzuning “oydan oydinligi”, yaʼni inson ruhiy holatini koʻz bilan koʻrish mumkin boʻlgan belgi – yorugʻlik darajasi bilan bogʻlanadi.

Sinesteziya bu oʻrinda lirik qahramon kechinmalarini yorqin aks ettirib beruvchi vositaga aylangan. Muhammad Yusuf sheʼriyatida bu kabi sinesteziyaga asoslangan metaforalarni koʻplab uchratish mumkin: “Sen bir shirin gʻam...” (“Sheʼriyat”), “shirin azob” (“Sheʼriyat bu...”), “Gʻamdek shirin sevinch” (“Netarman”), “koʻksimni kuydirdi nafrat” (“Onamga xat”), “Oʻtli muhabbat” (“Qoʻyavering...”) “Bu dunyoning shirin dardi sheʼrlar ekan (“Koʻhna quduq”) va b. Umuman olganda, sinesteziya asosida yuzaga kelgan metafora sheʼrning ifoda imkoniyatini kengaytirish va boyitishga xizmat qiladi. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, talmeh sanʼatidan unumli foydalanganligini guvohi boʻlamiz. Talmeh sanʼatiga adabiyotshunos olimlar turli hil taʼrif berishgan. Masalan, professor

---

<sup>8</sup> Sinesteziynaya metaforizatsiya kak sposob razvitiya polisemii. // Avtoreferat diss. na soisk... kand. filol. nauk. - Voronej, 2012. - S.9)

<sup>9</sup> Yusuf Muhammad. Saylanma. - T.: Sharq, 2007. – 97 b.)

Anvar Hojiahmedov shunday yozadi: talmeh (“nazar solmoq”) she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir.<sup>10</sup> O’quvchi u yoki bu ishorani ko’rar ekan, uning ko’z oldida o’sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo’lgan g’oyani, fikrni, tuyg’uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab etadi. Yosh tadqiqotchi N. Rahmonov ham A.Hojiahmedovni fikrlarni tasdiqlaydi va quyidagicha ta’rif bergan. Talmeh arabcha so’zdan olingan bo’lib (chaqmoq chaqnashi) degan ma’noni anglatadi.<sup>11</sup> Qorong’u kechada yashin chaqnaganda atrof yorishib, ilgari ko’rinmay turgan narsalar ko’rinib ketganday, biror mashhur shaxs yoxud voqeaga ishora, aytmoqchi bo’lgan fikr yoki manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga yordam beradi. Olimlar fikridan kelib chiqib, talmeh san’ati haqida shuni aytish mumkinki, asarlarda mashhur insonlar ismini tilga olish orqali o’quvchi ongida “xiralashib” turgan fikrni chaqmoq chaqqanday yorqinlashtirish, aniq tasvirlar orqali ong, shuurga muhurlashdan iboratdir. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ijodiga nazar solsak, birgina qo’shiqqa aylanib ketgan “Vatanim” she’rining har bir bandida, aniqrog’i, 14 misrada talmeh san’atidan unumli foydalangan. Avvalo, shoir xalqimizning tarixida mashhur bo’lgan, nomi afsonalarga aylangan shaxslar bilan bog’liq fikrlarini badiiy ifodalaydi.

Sen **Mashrabsan**,

Xalqda tumor,

**Balx**da dorga osilgan,

**Navoiysan**, shoh yonida

Faqirni duo qilgan.

**Yassaviysan** meniki deb,

Ko’ringan da’vo qilgan,

Ming bir yog’i ochilmagan,

<sup>10</sup>Хожиаҳмедов Н. Мумтоз бадийат малоҳати. “Шарк”. - Тошкент. 1999. 41-бет.

<sup>11</sup>Раҳмонов Н. 5-9-синфларда ўрганиладиган мумтоз шеърятнинг вазн кўрсаткичлари ва бадий хусусиятлари. – Мингбулок. 2014.

Qo‘rig‘imsan Vatanim!<sup>12</sup>

Shoir nazarida, Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Mashrab bir insonning ismigina emas, balki xalq, millatning ramzidir. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining ibratli hayoti yoki Mashrabning ayanchli qismati o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanib, kitobxonga estetik ta’sir qiladi.

**Sen Xo‘jandsan,**  
**Chingizlarga**  
Darbozasin ochmagan,  
**Temurmaliq** orqasidan  
**Muqannasan** qorachig‘i  
Olovlalarga sachragan,  
**Shiroqlarni** ko‘rgan cho‘pon –  
Cho‘lig‘imsan Vatanim!

Ushbu misralarda esa tarixiy voqealarni ifodalashda talmehdan foydalanilgan. SHoir xalq tarixini, uning eng “og‘ir” va eng “qora” kunlarini eslatish orqali ham kitobxonni Vatanni sevishtga o‘rgatadi.

Kim **Qashqarni** qildi makon,  
Kim **Enasoy** tomonda,  
**Jaloliddin** – Kurdistonda,  
**Boburing** – Hindistonda.<sup>13</sup>

Vatanni shonli tarixi bilan bog‘liq manzil, makonlar, joy nomlari, tarixiy shaxarlar, taqdirlar o‘quvchi kitobxonlarni befarq qoldirmaydi.

Vataniga qaytish “buyuk” armonga aylangan mardlik va jasorat, er yigit timsoli Jaloliddin Manguberdi, buyuk boburiylar imperiyasi asoschisi, dilbar shaxs, shoh va shoir Bobur nomini keltirish orqali vatanni qadriga etish, uni ardoqlashga chorlaydi.

---

<sup>12</sup>Юсуф,М.“Биз бахтли бўламиз”.- Тошкент. 2011. “Ниҳол” 3-4-бетлар.

<sup>13</sup> Ўша китоб. 5-бет.

Shoirning “Vatan madhi” she’rida ham talmehning go’zal namunasini kuzatamiz:

O’ping, ko’zingizga suring tuprog’in,  
Har so’zin muqaddas duodek seving.  
Qadang yuraklarga millat bayrog’in,  
Vatanni **Najmiddin Kubrodek** seving.<sup>14</sup>

Yuqoridagi satrlarda o’z Vatanini har narsadan baland qo’ygan, zarracha bo’lsin, ruhiy hurligiga malolat cho’ktirmaydigan, irodasi mustahkam, yuksak fazilat egasi, xudbinlikdan yuz o’giran, vatanparvar shoir timsoli gavdalantiriladi.

“Akademiya madhiyasi” she’rida ham talmeh san’atiga murojaat qilingan:

Ko’z ochganda kezib etti bahri ummon,  
Etti tilda so’zlashgan tili biyron.  
Vatanida **Tojmahallar** tiklar sulton-  
**Boburlari, Behzodlari** ilm istang.

Satrlarda buyuklar ismi takrorlanar ekan, har birida yaratilgan baddiy lavhalar, vaziyatni yangiligi, betakrorligiga hizmat qilyapti. Boburning nabirasi, Shohjahonning sadoqati timsoli, Mumtozmahalga atab qurilgan Tojimahal butun dunyoga mashhur. Anglashimizcha, yoshlardan buyuk Boburlar-u, uyg’onish davrining tipik vakili, u yaratgan asarlar hamon dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan Kamoliddin Behzodlarning etishib chiqishiga ishonch bildiriyapti.

Yoki:

Haq yo’lida siz ilmning ummatlari,  
Xalq yo’lida hidoyati, himmatlari.  
Madad bo’lsin **Yassaviyning** hikmatlari,  
**Bobo Mashrab** bayotlari, ilm istang.

Boborahim Mashrab o’zbek mumtoz she’riyatiga yangi ruh va o’ziga xos ijodiy nafas olib kirgan, Qalandarlikning (so’fizimning bir oqimi) yirik vakili. Mashrab yaratgan misralararo “xazina”ni qancha ko’p o’qisa o’shancha teran

---

<sup>14</sup> М.Юсуф. “Халқ бўл элим” Тошкент. Ўзбекистон. 2018 й. 14-бет.

anglash, shaxs va jamiyat, odam, olam, Haq va badda munosabatlarini to‘g‘ri mushohada aylash darajasiga etish ko‘zda tutiladi.

“Hayrat” she‘rida tarixga qayta murojaat qilinar ekan, kitobxon “qalb ko‘zi” ravshanlashib boradi.

Duru gavharin terib,  
**YAssaviy** bobodan ayt,  
**Najmiddin Kubrodan** ayt.  
Sen o‘zing ayt, onajon,  
Sen o‘zing aytgil Vatan.  
Inshoolloh, inshoolloh,  
Aslingga qaytgin, Vatan!<sup>15</sup>

Hoja Ahmad Yassaviyning dunyoga kelishi, “Devoni hikmat” yoki boshqa asarlarining yaratilishi bilan turkiy xalqlar o‘zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma‘nosi ila Ma‘rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga ega bo‘ldi. Avlodlar uchun Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi ulug‘ bir kitob, hikmatlar xazinasini.

Vatan haqidagi “shoh bayt”larni shoir ijodida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Haqiqiy shoir uchun ruhni, ko‘ngilni suyardigan shunday g‘urur kerak. O‘shandagina uning tafakkuri haqiqat ma‘volariga ko‘tariladi. O‘shandagina oddiy xalq ko‘nglidagi gaplarni poetik so‘zlarda tasvirlay oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir faoliyatida, uning yaratgan asarlarida, she‘rlarida juda katta ma‘rifiy qudrat bor. Talmeh san‘ati asosidagi yaratilgan har bir bayt o‘quvchini tarix bilan yuzlashtiradi. Shoir ma‘rifiy qudratining kitobxon qalbiga ko‘chishiga, har jihatdan barkamol inson bo‘lib etishishida, Vatan muhabbati yurakda mustahkam o‘rin olishiga munosib hissa bo‘ladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir so‘zlarga yangi badiiy vazifa, poetik g‘oya yuklab so‘z-ma‘no tovlanmalarini kashf etgan.

**“Daraxtlar kurtak ochdi”** chizmasi asosida Muhammad Yusufning ijodini 1-guruh *“Iste‘dod”* tomonidan yoritilishi;

---

<sup>15</sup> Ўша китоб.17-бет.

**“Venn diagrammasi”** asosida 2-*“Intellekt”* guruhi tomonidan sevimli shoirlarimiz A.Oripov va Muhammad Yusufni umumiy jihatlarini asoslab berish. Bu usulda o‘quvchilar shoirimiz Muhammad Yusuf va A.Oripovlarni umumiy jihatlarini ochib beradi.

*Namuna: O‘xshashligi: shoir, davlat arbobi, mahiya mualliflari (O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi, O‘zbekiston yoshlar madhiyasi), ayol, ona, muhabbat kabi bir mavzu ostida qalam tebratish...*

**“Sinkveyn” usuli:** bu usulda 3-*Tafakkur”* guruhi, “Vatan” so‘ziga sinkveyn tuzadi.

1. Vatan (ot)
2. Osoyishta, osuda. (sifat)
3. Vatan bog‘i yashnadi. (fe‘l)
4. Bizdan ozod Vatan qoladi! (jumla)
5. Yurt (birinchi so‘zni ma‘nodoshi)

Keltirilgan metodlardan guruhlar o‘zaro fikr almashinib foydalanadilar.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga tegishli bo‘lgan ibratli voqealardan aytib bering.
2. “Vatan, kimligingni bilmay sevaman” shoir nega bu qarorga keldi?
3. Shoir she‘rlaridagi badiiy mahorat haqida gapiring.
4. Muhammad Yusuf he‘rlarida o‘zlashma so‘zlarga misollar keltiring.
5. Muhammad Yusuf she‘riyatida senisteziya hodisasiga namuna keltiring..
6. Shoir she‘rlarida talmeh san‘atini qo‘llash mahorati haqida gapiring.
7. Shoir she‘rlarini o‘rgatishda qanday metodlarni qo‘llashni taklif etasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳоҗиаҳмедов.А. “Мумтоз бадиият малоҳати”. “Шарқ” нашрёт. – Тошкент. 1999.41- бет.
2. Раҳмонов.Н.5-9- синфларда ўрганиладиган мумтоз шеъриятнинг вазн кўрсаткичлари ва бадиий хусусиятлари. - Мингбулок, 2014.}

3. Юсуф, М. “Ёлғончи ёр”. Гафур Гулом номидаги нашрёт- матбаа ижодий уйи. – Тошкент 2018.
4. Юсуф, М. “Халқ бўл, элим”. - Тошкент. “Ўзбекистон”. 2018.
5. Юсуф, М. “Биз бахтли бўламиз”. Ниҳол. – Тошкент. 2011.



## SUHBAT-FIKRLASHUVLAR

### **Amaliy mashg'ulot: Muhammad Yusuf she'riyatida xalqona ohang**

O'tkazish shakli: muloqot.

Fakultativ mashg'ulot muloqot shaklida tashkil etilganda talabalar bilan domlaning tengma-teng erkin fikr almashinuvini yo'lga qo'yish ko'zda tutiladi.

Bunda tashabbus ko'proq talabalarda bo'ladi. Chunki o'qituvchi vaqt byudjetini talabalar ixtiyoriga ko'ra taqsimlashi kerak bo'ladi. Muhammad Yusufday betakror va o'ziga xos shaxsiyat egasi hamda uning kutilmagan original yondashuvlarga to'la she'riyatining shakliy-mundarijaviy o'ziga xosligi borasida turlicha qarashlar asosida mashg'ulot uyushtiriladi. O'ziga xos bo'lmagan ijod namunasi badiiy didga ega kishilarni o'ziga rom qila olmaydi. Chunki unda betakrorlik bo'lmaydi.

Bunday mashg'ulotlar talabalarda erkin fikr, tashabbuskorlik, fikrchanlik, topqirlik singari sifatlar shakllanishiga olib kelishi bilan ahamiyatlidir.

Interfaol metod. Mashg'ulot "Munozarali dars" pedtexnologiyasi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot domlaning kirish so'zi bilan ochiladi. Kirish so'zidan so'ng "Munozarali dars"ning quyidagi talablarini tushuntiradi:

1. Guruh talabalarining sonidan kelib chiqqan holda uch yoki to'rt kichik guruhga ajratiladi.

2. Har bir kichik guruhga yetakchi tayinlaydi. Jamoaning fikrini faqat yetakchi aytadi, qo'shimchalar uning fikridan keyin bildiriladi.

3. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy misollar bilan isbotlash kabi jihatlar hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini sharhlashi, tanqid qilishi, qo'shimcha fikr bildirish va savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Talabalar Muhammad Yusuf she'riyatini elaro mashhur qilgan, uning jozibasini ta'minlagan omillar nimadan iboratligini bilib olishadi. Ular badiiy ijodda shakl va mundarijaning o'rni, ulardan qaysi birining birlamchi ahamiyatga egaligi yoxud shaklsiz mazmun, mazmunsiz shakl bo'lmasligi, bu ikkovining uyg'unligigina badiiy yaratiqqa qimmat bag'ishlashini bilib olisadi.

**Tayanch tushunchalar: shakl, mazmun, mundarija, ijodiy izlanish, shakl yangiligi, mazmun originalligi.**

## PIRLS

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng asosiy bo'g'ini sifatida bolaning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o'taydi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning aqliy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Dunoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, go'zallik va nafosatdan zavqalana olish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Albatta, bu jarayonda o'qish darslari, unda yozuvchi va shoirlar hamda ularning asarlarini o'rgatilishi muhim ilmiy-metodik o'rin tutadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga Muhammad Yusufning ijod namunalarini o'rgatish ham muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois 2-,3-,4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida Muhammad Yusuf ijodi haqida ma'lumot berish, uning ayrim she'rlarini o'qitish metodik jihatdan asosli. Boshlang'ich ta'lim, 2-sinfda Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Vatan madhi", 3-sinfda "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri qisqartirilgan (ikkinchi va beshinchi bandlari tushirib qoldirilgan) holda, 4-sinfda "Dunyolarni quchdi O'zbek degan nom" she'ri o'rganish uchun taqdim etilgan. Darslarda yagona topshiriq: "She'rni ifodali o'qing" bo'lgani bois mazkur she'rlarni PIRLS topshiriqlari asosida o'rgatish samarali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifasi belgilangan.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir.<sup>16</sup> O'zbekistonda bolalar

---

<sup>16</sup> Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent, 2019. – B 34.

maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi va ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta yoshda (10,7-10,9) PIRLS tadqiqotida ishtirok etishadi.

PIRLS dasturiga ko‘ra matnni tushunishning har bir darajasida o‘quvchilardan talab etiladigan kompetentsiyalar quyidagicha:

	<b>Matnni oliy darajada tushunish</b>
625 ball	<p><b>Oddiy badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> muallifning umumiy g‘oyasini tushunish uchun matnning tafsilotlarini bog‘lash, qahramonlarning his-tuyg‘ularini, niyatlarini, maqsadlarini va xarakter xususiyatlarini tushunish uchun voqealar va harakatlarni sharhlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.</p> <p><b>Axborot matnlarini o‘qish jarayonida, o‘quvchi</b> yaxlit bir matndan va murakkab jadvallardan kerakli ma‘lumotlarni topishi va sharhlay olishi kerak.</p>
	<b>Matnni yuqori darajada tushunish</b>
550 ball	<p><b>Badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> matnning turli qismlarida yashiringan tafsilotlar mazmunini anglay oladi.</p> <p><b>Axborot matnlarini o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> yaxlit bir matndan va murakkab jadvallardan kerakli ma‘lumotlarni topa olishi va sharhlay olishi kerak.</p>
	<b>Matnni o‘rta darajada tushunish</b>
475 ball	<p><b>Badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> qahramonlarning harakatlarini aniq talqin qilishi va oddiy tushuntira bera olishi lozim.</p> <p><b>Axborot matnlarini o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> matndan ikki-uch aniq ma‘lumotlarni topishi va sharhlashi lozim.</p>
	<b>Matnni quyi darajada tushunish</b>
400 ball	<p><b>Badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> matndan aniq ta‘riflangan tafsilotni topishi lozim.</p>

	<b>Axborot matnlarini o‘qish jarayonida o‘quvchi</b> matnning boshida keltirilgan aniq bir xabarni topishi va belgilashi kerak.
--	---

**PIRLS – tadqiqotida anglab o‘qishni baholashga yo‘naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:**

№	Tushunish jarayonlari	Foiz
1.	Aniq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni topish	20 %
2.	Kelib chiqqan xulosalarni ifodalash	30 %
3.	Ma’lumotni umumlashtirish va izohlash	30 %
4.	Matnning tuzilishi va mazmuni, tilning o‘ziga xosligi tahlili va baholanishi	20 %

PIRLS – o‘qish savodxonligi darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchun 1000 ta so‘zgacha matn beriladi.

PIRLS – o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so‘zdan tashkil topgan matn beriladi.

Boshlang‘ich ta’lim, 2-sinfda Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Vatan madhi”<sup>17</sup>, 3-sinfda “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor” she’ri<sup>18</sup> qisqartirilgan (ikkinchi va beshinchi bandlari tushirib qoldirilgan) holda, 4-sinfda “Dunyolarni quchdi O‘zbek degan nom”<sup>19</sup> she’ri o‘rganish uchun taqdim etilgan. Darslarda yagona topshiriq: “She’rni ifodali o‘qing” bo‘lgani bois mazkur she’rlarni PIRLS topshiriqlari asosida o‘rgatish samaralidir.

Biz shoirning sinfdan tashqari o‘qish kitoblarida berilgan vatan mavzusidagi she’rlariga asoslanib 570 ta so‘zdan iborat matn tayyorladik.

<sup>17</sup> Sinfdan tashqari o‘qish kitobi: 2-sinf uchun o‘quv qo‘llanma/ tuzuvchi: Avvalboyeva I. – Toshkent: Yurist-mediamarkazi, 2019. – B. 4.

<sup>18</sup> O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik / M.Umarova, Hamraqulova X., Tojiboyeva R. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – B.193.

<sup>19</sup>Sinfdan tashqari o‘qish kitobi: 2-sinf uchun o‘quv qo‘llanma/ tuzuvchi: Avvalboyeva I. – Toshkent: Yurist-mediamarkazi, 2019. – B. 4.

### **“Bobolarim yotar sajdagohim”**

Bir kuni onam ochiq ayvonda paxta gulli choynak-piyolada opam damlagan ko‘k choydan bir ho‘plamdan choy ichib o‘tirardi. Men Muhammad Yusufning “Vatanim” she‘rini qayta-qayta o‘qib yod olishga harakat qilardim. Kitobni yopdim-da, onamning oldiga chopib borib, tizzasiga bosh qo‘yib, chalqancha yotib oldim. Onam boshimni silay boshladi. Dunyodagi eng mehribon qo‘ldan mahkam tutdim-da, savol berdim:

– Onajon, sizningcha, Vatan nima? Onamning yuzida avval ko‘rmaganim ajib o‘zgarish (ko‘zda yosh, yuzda tabassum) qorachig‘da aylanayotgan yosh maskanidan uzilarmi deb, qo‘rquv ila boqib turibman.

– “Qandoq tushuntirsamikin, – deya gap boshladi u nihoyat. Otam yo‘q, aniqrog‘i, eslolmayman ham. Onamning aytishicha, go‘dakligimda vafot etgan. Tengqurlarim “dada” deb gapirsa yoki chaqirsa, og‘ziga qarab turardim. Chunki men bu baxtdan mahrum edim. Ba‘zi otalar ishdan qaytgach, o‘rtoqlarimga (shokolad, saqich va boshqa shirinliklar) nimadirlar olib kelar, yonida bo‘lsam, albatta, menga ham tutqazishardi. Hozir ham eslasam qo‘shni amakilardan minnatdor bo‘laman. Onam bir yutinib olib, davom etdi: yolg‘iz qolgan paytlarim, berkinib, hech kimga ko‘rsatmay dada...dada... deya chaqirib olardim. Vujudimdan otilgan o‘t ko‘z yosh bo‘lib yuzimni yuwardi. Biroq o‘z ko‘z yoshimga o‘zim cho‘milib qolaverardim.

Shu yerga kelganda o‘pkam to‘lib, tomog‘imga achchiq bir narsa qadaldi, onamga bir narsalar demoqchi edimu, yig‘lab yubormaslik uchun onamning qo‘llariga mahkamroq yopishdim.

... Otam qo‘llari tekkan paxsa devorlar – Vatan! Onam esa uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men uy yumushlarida onamga ko‘maklashib, oilaning tirikchilik manbai yagona sigirning sut, qatiqlarini sotish uchun qishloq ko‘chalarida katta bo‘ldim. Onamning qatiq, sut sotib yurishlariga hech yo‘l qo‘ymasdim, nimagadir or qilardim. Menga esa hammasi tanish, ariq bo‘yidagi momaqaymoqlar ham kulib kutib, kulib kuzatishardi. Bu mitti

quyoshchalarni ko‘rib ko‘nglim yorishardi. Mana, mening Vatanim! Mening Vatanim, mening qishlog‘im, bo‘ylarimizni ko‘rmagan otam, tol beshik uzra hasrati, dardini allasigagina joylagan munisim onam, menga ertaklar so‘ylab ardoqlagan zamin! Vatan – bobolarim yotgan sajdagohim! Yalpizlar yastangan dala-dashtlarim! Osmonga yuksalgan oq teraklarim, Vatanim men bormanmi? Yo‘qmi? Mangu chamanim.

Ajdodlarim qo‘nim topgan qadim ona tuproq. Farzandlarimni alqab kuzatib, ilhaq kutguvchim.

Bolam! Seni qorachig‘ingda aks etgan bir parcha bulut, bir parcha yo‘l Vatan huzuriga eltiguvchi nur.

Mening Vatanim – mening oilam, bu: otang, akang, opalaring va sen.

Qishlog‘im: ko‘kda ketayotgan qushlar, bog‘lar, tog‘lar, soylar, ko‘priklar, tanish teraklar. Osmondagi avval pushti, so‘ngra oltindek tovlanayotgan pag‘a bulutlar. Vatanim o‘tmishim, bugunim va kelajagim! Vatanim kelsam ham kelgan yog‘im, ketsam ham asqotar qarorgohim.

Bolajonim, kel, senga Vatan tushunchasi, uning muqaddasligini buyuklarimiz hikmatlari orqali tushuntirib beraman. Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy hazratlarining zamondoshi muarrix Xondamir “Makorim-ul-ahloq” kitobida quyidagi voqeani bayon etadi: Bir kuni hidoyat nasabli Amir (Alisher Navoiy) asr namozini o‘qigandan so‘ng har kunlik odatiga xilof ravishda, jamoat namoziga kelmagan kishilarni surishtirishga kirishmasdan, shosha-pisha o‘zlarining shaxsiy bog‘chalari tomon yo‘l oldilar va unchalik vaqt o‘tmasdan, tezda qaytib keldilar. Bundan ul hazratning xizmatida bo‘lgan mulozimlardan ayrimlari hayron bo‘ldilar. Ul hazrat bu holatni tushunib, o‘zidan gavharlar sochuvchi tillari bilan quyidagi so‘zlarni aytdilar:

– Masjidga kelayotgan chog‘imda falon joyda to‘xtab, tahorat qilgan edim. Namoz chog‘ida (jamoat bo‘lib namoz o‘quvchilar safida) turganimda yelkamga yopishib olgan bir chumolini ko‘rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib olgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga

boradigan yoʻlni topolmay qolsa, vatandan judo boʻlsa, uvoliga qolamanmi, deb qoʻrqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan soʻng tezda oʻsha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni oʻz uyasi oldiga qoʻyib yubordim va koʻnglimni (oʻzim bilmagan holda Xudoning bir jonivoriga) jabr-zulm qilib qoʻyish xavotiridan xalos qildim. Ul hazratning xizmatkorlari bu hikoyatni eshitib, uning benihoya rahmdilligidan hayrat dengiziga gʻarq boʻlishdi hamda tillariga (ul hazratning haqlariga) duo-yu hamd-u sanolar keltirishdi. Vatan tarkini bir nafas aylama, oʻylama<sup>20</sup>.

Alqissa, Navoiy hikmatlari inson qalbini maʼnan boyituvchi, hayot atalmish sayohatida unga yoʻl koʻrsatuvchi sodiq, samimiy yoʻldoshdir. Vatandan judo boʻlmoq, oʻzlikdan judo boʻlmoqdir. Hasharotning ham Vatandan ayro tushmasligini, sarson boʻlmasligini oʻylab, hasharot misolida insonlarga Vatanga muhabbatli, sadoqatli boʻlishni uqtirib oʻtilyapti.

Shu hikoyadan soʻng qaddimni rostlab: – Onam, mening ham fikrlarimni eshiting, – dedim. Sizing hikoyalarigizni eshitib, shoir M. Yusufning sheʼrlarini oʻqib, qalvim muhabbatga toʻlib toshdi va shunday xulosaga keldim, xalq yonida boʻlishga Navoiyni bergan, xalqqa tumor qilib Mashrabni bergan, Muqannadir qorachigʻi olovlariga sachragan, buyuklarni meniki deb, butun dunyo daʼvo qilgan ulugʻimdir Vatanim! Qoʻlingizdagi piyola bu - mening Vatanim! Onamning koʻzlari hayrat ila menga boqdi. Ha, ha, bu piyola mening Vatanim! Chunki piyola Vatan bagʻridan, tuprogʻidan yaralgan! Qoʻynimdagi iftixorim, Boʻynimdagi tumorim Vatan!

Onam peshonamdan oʻpib, mehri ila siyladi... (570 ta soʻz)

### **“Bobolarim yotar sajdagohim”**

Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlar beriladi.

#### **1.Voqea kim tomonidan hikoya qilingan?**

A. Bola.

V. Ota.

---

<sup>20</sup> Xondamir .Makorim-ul-axloq. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/alisher-navoiy-hikmatlari>.



C. Ona.

D. Do'sti.

**2. Hikoya boshida voqea nimadan boshlandi?**

A. Hikoya ichida hikoyadan.

B. Ona ko'k choy ichib o'tirardi.

C. Qatiq, sut sotib yurishdan.

D. Bola kitob o'qib o'tirardi.

**3. Aytinch, onangizda ko'zda yosh, yuzda tabassum holatini kuzatganmisiz? Qachon, nima uchun? Fikrlaringizni yozing. Bolaning onasi nega qo'shni amakilardan minnatdor bo'ldi?**

A. Boshidan silagani uchun.

B. Uni ham o'ksitmay shirinliklar bergani uchun.

C. Qo'shni bo'lgani uchun.

D. U hech kimni unutishni xohlamaydi.

**4. Bolaning onasi nega qo'shni amakilardan minnatdor bo'ldi?**

A. Boshidan silagani uchun.

B. Uni ham o'ksitmay shirinliklar bergani uchun.

C. Qo'shni bo'lgani uchun.

D. U hech kimni unitishni xohlamaydi.

**5. U bir yutinib olib, davom etdi: yolg'iz qolgan paytlarim, berkinib, hech kimga ko'rsatmay dada...dada... deya chaqirib olardim. Vujudimdan otilgan o't ko'z yosh bo'lib yuzimni yuwardi. Biroq o'z ko'z yoshimga o'zim cho'milib qolaverardim.**

Nega u berkinib "dada" deydi? Nima sababdan u o'zini shunday his qilganini tushuntiring. "Ko'z yoshimga o'zim cho'milib" jumlasini mazmunini tushuntiring?


**6. Hikoyadagi bola timsolining eng muhim xususiyatlarni belgilang.**

1. Otasidan erta ajralgan yetim bola
2. Vatanini qadrlaydigan inson
3. Vatan soʻzini tushuna olmaydigan “gʻoʻr” bola
4. Dunyoqarashi keng bola
5. ....

7-qatorga xohlagan fikrlarni yozing, lekin mantiq buzilmasin.

Oʻquvchi belgilab boʻlgandan keyin har bir variantning ballar asosida koʻrib chiqiladi. 1-,2-,3-javoblarni tanlagan oʻquvchi – hayotga bir oz salbiy nigoh bilan boqadi, 4-raqamni tanlagan bola – atrofdan yaxshilik qidiradigan inson, 1-,2-,4-raqamlarni tanlab 5-topshiriqqa mustaqil fikr yoza olgan oʻquvchilar atrofdan yaxshilik qidiradi, ezgulik ulashadigan insonlar. Agar aralash holda belgilasa, realist yoki keng fikrlaydigan oʻquvchi sanaladi.

7. Hikoya qilayotganda onaning ruhiyati qanday edi? 5 ta soʻz bilan ifodalang.



8. Hikoyaga asoslanib, mavzuga mos rasm chizing. Vatan deganda siz nimani tushunasiz? Tasavvuringizni ishga soling. Sizning nazaringizda Vatan nima? Xohlagan narsangiz bilan Vatan tushunchasini izohlang (surat, soʻzlar, belgilarda) hikoyadagi bolaning tasavvuri esa:



1. Hikoya ichidagi hikoya qanday bog'liqlikda? Quyidagi gaplardan qaysilari 2-hikoya matnidan olingan?

	<b>Gaplar</b>	<b>X</b>	<b>√</b>	<b>X</b>	<b>√</b>
1.	Bolam! Sening qorachig'ingda aks etgan bir parcha bulut, bir parcha yo'l Vatan huzuriga eltiguvchi nur.	X			
2.	Nimagadir bir kuni tarki odat qilib, qaergadir shoshilib borib keldilar.				
3.	Ajdodlarim qo'nim topgan qadim ona tuproq. Farzandlarimni alqab kuzatib, ilhaq kutguvchim.				
4.	Muarrix Xondamir "Makorim-ul-axloq" kitobida quyidagi voqeani bayon etadi:				
5.	Ikki yelkamga salom berganda ko'rdimki ustimda bir chumoli turibdi.				
6.	Bu chumoli tahorat olganim				

	joydan chiqqanini bildim va bir jonzotni oshiyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o‘ylab uni o‘z joyiga qo‘yib keldim				
--	---	--	--	--	--

9 .Ona ■, bola ■, Muhammad Yusuf ■, Navoiy ■ obrazlariga xos xislatlarni tanlangan ranglarda bo‘yang.

mehribon	o‘ychan	andijonlik	foniy
oriyatli	yosh	aqli	mushfiq
mutafakkir	ko‘zi yoshli	baxtli	qiziquvchan
bilimli	sevimli	zullisonayn shoir	shoir
“Xamsa” mullifi	avliyo	“Ulug’imsan, Vatanim” she’rining muallifi	munis

O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishlari konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma’noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi). O‘quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Bolalarga turli o‘yin, metod, usullar orqali dars tashkil etish bolalarga yordam beradi, tarbiyalaydi, rivojlantiradi, xotira, e’tibor, tasavvur, aql, fantaziya, til, mehnatsevarlik, halollik, kabi fazilatlarni rivojlantiradi.<sup>1</sup>

PIRLS o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma’lumot olish va ulardan foydalanish uchun o‘qishdir.

3-ТОПШИРИК

Айтингчи, кўзда ёш, юзда табасум оёвиз юзда шундай ҳолат кузатганимиз? Качои, шова учун? Фикрларини яшиқ исботланг.

*Сизга сиз сизни уяғши қора мен деганимда шу халак болоди*

4-ТОПШИРИК

Болаинг онаш нега кўшни амаклардан миннатдор бўли?

А. Бонидан сизлагани учун.  
 Б. Уни ҳам ўқитмай ширинликлар бергани учун.  
 С. Кўшни бўлгани учун.  
 Д. У ҳеч қимни униттишни хохламайди.


5-ТОПШИРИК

У бир ютиниб олиб, давом этди: ёлғиз қолган пайтларим, беркиниб, ҳеч қимга кўрсатмай дада... дада... дея чакриб олардим. Вужудимдан отилган ўт кўз ёш бўлиб қозимни юварди. Бирок, ўз кўз ешимда ўзим чўмилиб қолаверардим. Нега у беркиниб "дада" дейди? Нима сабабдан у ўзини шундай ҳис қилганини тушунтиринг. "Кўз ешимда ўзим чўмилиб" жумласини қандай тушундингиз?

*Dadajini soʻzini "su yigʻlar edi Men bu xaladni oz gʻamli ichigʻu qonligiga oʻxshataman"*


6-ТОПШИРИК

Хикоядаги бола образининг эш муҳим хусусиятларини белгиланг. ? схи 4



8-ТОПШИРИК

Хикояга асослашиб мавзуга мос расм чизинг. Ватан деганда сиз нимаини тушунасиз? Тасаввурингизни ишга солинг. Сизни назарингизда Ватан нима? Ҳақдаган нарсангиз билан Ватанни изоҳланг (сурат, сўзлар, белгилар) Хикоядаги болаининг тасаввури эса:



**8-sinf**

**I. Dars ishlanma.**

**Mavzu: Muhammad Yusufning “Vatanim”, “Mehr qolur” she’rlari (8-sinf)**

***Maqsad:***

*a) ta’limiy:* Muhammad Yusuf she’riyatida so‘z qo‘llash mahoratiga diqqat qaratish, DTS bo‘yicha BKM larni egallashiga erishish;

*b) tarbiyaviy:* o‘quvchilarni insonparvarlik va farovon hayotni qadrlash ruhida tarbiyalash, ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

*s) rivojlantiruvchi:* shoir she’rlari orqali vatanga muhabbat hissini shakllantirish, yashash mohiyatini anglatishdan iborat.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi va nazorat qiluvchi.

**Dars metodi:** “Venn diagrammasi”, “Boshqotirma”, “Sirli raqam” “Sinkveyn”.

**Dars jihozi:** Mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, plakatlar, taqdimot televizor, audio va video materiallar.

**Darsning shiori:**

**Ilmni kim vositai joh etar,**

**O‘zini yu elini gumroh etar.**

*Alisher Navoiy.*

**Darsning borishi:**

**I. bosqich: 1.Tashkiliy qism:** Salomlashish, davomat, dars shakli va o‘yin shartlarini tushuntirish. O‘quvchilarning diqqatini darsga jalb qilish uchun quyidagi she’rni o‘quvchilarga yoddan ifodali o‘qib beriladi:

**Yurak og‘rir, sezdirmaydi til,**

**Jism mag‘rur, bo‘zlaydi ko‘ngil.**

**Bu keng dilga sig‘olmaydi qil,**

**Men kutgan kun, sen kelmagan kun.**

**(Nazira as-Salom)**

## **II. bosqich: 2. O‘tilgan mavzuni takrorlash**

### **Savollar:**

1. Shukur Xolmirzayev qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Shukur Xolmirzayev hikoya va ocherklari qachondan ommaviy axborotlarda e‘lon qilina boshlandi?
3. Yozuvchi ijodiga oid qanday hikoyalarni bilasiz?
4. Yozuvchi qissalari muxlislar bilan birga qaysi ustozni e‘tiborini qozongan?

O‘quvchilar javoblari tinglangach, ularni 3 guruhga bo‘lib, boshqotirma beriladi.

### **I. guruh - “Iste’dod”;**

### **II. guruh- “Intellekt”**

### **III. guruh- “Tafakkur”**

*1-guruh:* **Q M S O R C H E L F H U B R** berilgan harflardan 4 ta ortiqcha harflarni olib tashlagan holda, qolgan harflardan Muhammad Yusuf ijodiga oid she‘r nomini topish;

*2-guruh:* **yaxshi-yomon, mehr-muhabbat, inson, qolur;** ushbu so‘zlarda Muhammad Yusuf ijodiga oid she‘rning ikki misrasi yashiringan. So‘zlarni joylashtirish orqali misrani toping.

### *3-guruh:*

**9770 / 5=** berilgan sirli raqamlar orqali misolni yeching va shoir hayotiga oid sanani aniqlang.

### *III bosqich:*

### **3. Yangi mavzu bayoni.**

O‘quvchilar diqqati jalb qilingach, Muhammad Yusuf she‘rlari haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tiladi.

Siz zamonamizning zabardast shoiri va jamoat arbobi sifatida O‘zbekistonning jarangdor ovozi bo‘ldingiz, deb aytsak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Obro‘ talashmaydigan, izzatini so‘roqlab yurishni or biladigan, sharqona mard,

jasurlik timsoli, xalqimiz ardog'idagi shoirsiz. Mustaqil O'zbekiston minbarlarida yangragan she'rlaringiz – Xalqning yuragiga yaqin she'rlar o'zbek farzandining aql-u zakosi, fazl-u kamolidan noyob nishonadir. Siz latif ijodingiz bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdingiz. Vatanni g'aroyib ishq ila sevishni o'rgatdingiz. Siz Navoiy, Bobur, A. Oripov, E. Vohidov kabi Sharqning buyuk shoirlari boshlagan an'analarni boyitib, yangi pog'onaga ko'tardingiz. Ayniqsa qo'shiqchilik san'atiga sof va musaffo havo olib kirdingiz. Sizning, ko'ngil dardlari bo'lgan she'riyatingiz hech qachon zavol bilmas!

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf she'rlari harorat bilan bitilgan, ehtirosli, hayotbaxsh she'rlardir. Ular xoh Vatan haqida, uning go'zal tabiati, mehnatkash odamlari, buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo'lsin, xoh insonlarning turfa his-tuyg'ulari: mehr-muhabbat, quvonch-u shodlik, baxt, saodatni tarannum etishga bag'ishlangan bo'lsin barchasida hayotsevarlik, Vatanga samimiy farzandlik muhabbati o'quvchida yorug' kayfiyat paydo etish istagi hukmronidir. Bu fikrning isbotini shoirning "Biz baxtli bo'lamiz" nomli turkumiga kirgan "Vatan" she'ri misolida ko'rish mumkin:

*Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug' jahonim,  
O'zim hoqon,  
O'zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim.  
Yolg'izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim...*

Asli, Vatani haqida she'r yozmagan shoir, asar bitmagan adib, olim, san'atkor yo'q. Vatan haqida eng ko'p va eng xo'p yozganlardan biri Muhammad Yusufdir. Buni oddiy sanoqdan ham, she'rlarining mavzu, mohiyatidan ham, kitoblaridan biri "Ulug'imsan, Vatanim" deb atalishidan ham anglashiladi. Shoir balandparvoz so'zlarni, yasama iboralarni xush ko'rmas, yurakka jiz etib



tegadigan, cho‘g‘li, ta‘sirli misralar, hayotiy misol, timsol, qiyoslar bilan yurtning betakror go‘zalligi, ulug‘vorligini tarannum etardi.

#### 4. **Mustahkamlash, guruhlarda ishlash:**

“**Daraxtlar kurtak ochdi**” chizmasi asosida Muhammad Yusufning ijodini 1-guruh “*Iste‘dod*” tomonidan yoritilishi;

“**Venn diagrammasi**” asosida 2-“*Intellekt*” guruhi tomonidan sevimli shoirlarimiz A.Oripov va Muhammad Yusufni umumiy jihatlarini asoslab berish. Bu usulda o‘quvchilar shoirimiz Muhammad Yusuf va A.Oripovlarni umumiy jihatlarini ochib beradi.

**Namuna: O‘xshashligi: shoir, davlat arbobi, madhiya mualliflari (O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi, O‘zbekiston yoshlar madhiyasi), ayol, ona, muhabbat kabi bir mavzu ostida qalam tebratish. . .**

“**Sinkveyn**” usuli: bu usulda 3 – “*Tafakkur*” guruhi, “Vatan” so‘ziga sinkveyn tuzadi.

1. Vatan (ot)
2. Osoyishta, osuda. (sifat)
3. Vatan bog‘i yashnadi. (fe‘l)
4. Bizdan ozod Vatan qoladi! (jumla)
5. Yurt (birinchi so‘zni ma‘nodoshi)

Keltirilgan metodlardan guruhlar o‘zaro fikr almashinib foydalanadilar.

Navbatdagi topshiriqqa ko‘ra, guruhlar tanlagan konvertdagi savollarga javob beradilar.

1. Muhammad Yusuf she‘riyatining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring?
2. Muhammad Yusufning biror she‘ridan namuna keltiring?
3. “Vatan” she‘rida shoir qanday kechinmalarni hayolidan o‘tkazadi?
4. “Mehr qolur” she‘rining bosh g‘oyasi nima?
5. Muhammad Yusuf she‘rlarining asosiy mavzusi nima?
6. Shoir qanday nomdagi davlat mukofotini olgan?
7. Muhammad Yusuf qachon va necha yoshida vafot etgan?

**She'ni ifodali o'qish mashqi:**

*1-guruh:* “ Vatan” she’ri;

*2-guruh:* “Mehr qolur” she’ri;

*3-guruh:* “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor...” she’ri;

**III bosqich: Mavzuni yakunlash**

Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, u yaratgan bebaho she’rlarida samimiy tuyg’ular tarannumini, qalb nozikliklarini, ko‘ngil kechinmalarini qalban his etamiz. Shoir ijodida asosan Vatan, ona, muhabbat, yurt sog’inchi mavzulari ko‘plab uchraydi. Xatto, shoir bir kuni – yigirma besh yil bo‘ldi, Toshkentda hayot kechiraman, lekin har kuni yigirma besh marta Andijonni sog’inaman. Andijonni men Andijonda yashayotganlardan ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘raman, - degan edi. Shoirning quyidagi she’ri orqali ham fikrimizni isbotini keltirishimiz mumkin:

*Andijon, ko‘nglimda ko‘kargan dalam,  
Yo‘limga termulib tolgan chorbog‘lar.  
Meni sog‘inadi sog‘inmasam ham,  
Bog‘i Boburdagi momaqaymoqlar.*

Ko‘rinadiki shoir hayotni kuylaydi. Qalbidagi kechinmalarini real tasvirlashga urinadi. U o‘zining samimiy tuyg‘ulari bilan, Vatanga muhabbatini ko‘ngli buyurgandek yozdi. Yolg‘ondan, bo‘rtirib, to‘qib yozmadi, shunchaki Vatanning bo‘y-u bastiga qarab yozdi. Shunga bo‘lsa kerak she’rlari har yurakka singib-singib ketadi.

**6. Baholash va vazifa berish**

To‘plagan ballar hisoblanib g‘olib aniqlanadi. Shuningdek, har bir guruhdagi eng faol va sust o‘quvchilar alohida baholanadi. G‘olib guruh (guruhlar) rag‘batlantiriladi.

**Uyga topshiriq.** Muhammad Yusuf she’rlari bilan tanishib chiqish va she’ni yod olib, tahlil qilish. Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.

**MAVZU: MUHAMMAD YUSUF – EL SUYGAN SHOIR.**

**Darsning maqsadi:**

**a) ta’limiy maqsad:** O‘quvchilarga xalqimiz ardog‘idagi shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida tushuncha berish orqali ularning shoir she’riyatiga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish, badiiy she’r san’atlarini o‘rgatish.

**b) tarbiyaviy maqsad:** Muhammad Yusuf so‘zi bilan aytganda, olmosdan ham keskin shamshirlarni qo‘lga olib, tuproqni to‘shak bilib, ot egarini bolish qilib Jaloliddin kabi jahongashta bo‘lib, umrlarining yarmini tog‘- u toshda o‘tkazgan, ko‘kraklarini qo‘rg‘oshinga qalqon qilib, oq yaktaklarni o‘zlariga kafan qilib, chakalakzorlarni makon qilib, shu yurt, shu zamin uchun jonlarini fido qilgan bobolarimiz haqqi-hurmati Vatanimizni jon qadar asramog‘imiz lozimligini yosh avlodlarga o‘rgatish.

**c) rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarni Muhammad Yusufdek mard, Vatanga sadoqatli, uning har bir g‘iyohini qadrlaydigan farzand qilib tarbiyalash.

**Tayanch kompetensiya:** Milliy va umummadaniy. Badiiy adabiyot va san’atdek sevgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** O‘yin, musobaqa, “Sirli tilsim”, “Klaster”, “Raqamlar tilga kirganda”, “Moychechak”, “Muhammad Yusufning ijod charxpalagi”, “Men haqimda she’r bilasizmi?”

**Dars metodi:** noan’anaviy

**Fanlararo aloqa:** ona tili, botanika, zoologiya, matematika

**Dars jihozi:** Muhammad Yusuf portreti, uning she’riy kitoblari, disklar, elektron darslik, tarqatmalar.

**Dars shiori:** Fidoying bo‘lgaymiz, seni O‘zbekiston.

**Dars epigrafi:**

**Nogoh ko‘zlarimga to‘lib ketar nam,  
Hatto qo‘llarimda qaltirar qalam,  
Yig‘laganday bo‘lar qizg‘aldoqlar ham,  
Muhammad Yusufni esga olganda.**

Sinf xonasiga Muhammad Yusuf qiyofasida o‘quvchi “Lolaqizg‘aldoq” she’rini aytib kirib keladi.

O‘qituvchi:

Assalom ey ko‘hna Turon sho‘x sabosi, assalom

Assalom ahli vodiy kuy-mevasi assalom.

Har boqqanda dil yayrab, qalblarga quvonch bergan,

Aziz ustozlar-u, o‘quvchilar assalom.

O‘quvchilar bilan salomlashadi. Sinf davomatini aniqlaydi.

Insonning insonligi anglanur mehr bilan,

Darsimizning madhiyasi kim aytadi she’r bilan.

O‘quvchi:

Fanlar ichra sardori

Adabiyot fanidir

Oshiq dillar sardori

Adabiyot fanidir.

Dunyo fanlari bori bir muhtasham bog‘ bo‘lsa,

Yeng muhtasham gulzori adabiyot fanidir.

O‘qituvchi: Kelinglar, o‘quvchilar, o‘tgan darsda qanday mavzu o‘tkanimizni “Sirli tilsim” orqali bilib olaylik. “Sirli so‘zlar” dagi raqamning o‘rniga o‘zbek alifbosidagi harfni qo‘ysangiz mavzu kelib chiqadi.

O‘qituvchi “M” harfi bilan boshlanadigan she’r aytadi, o‘quvchilar qolgan harflarga she’r aytadilar.

O‘qituvchi: Kelinglar o‘quvchilar, 2 ta yirik guruhga bo‘linaylik. Musobaqa darsi tashkil qilamiz. 1-guruh – “Lolaqizg‘aldoq” guruhi, 2-guruh “Binafsha”

guruhi.

Guruhlar joylaringizni egallang.

1-shart: Muhammad Yusufning hayot chiziqlari asosidagi “Raqamlar tilga kirganda” o‘yini:

2-shart.

Endi esa har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari nomini yozadi.

3-shart.

O‘quvchilar Muhammad Yusuf qaysi mavzularda ijod qilgan? Hozir har bir guruh Muhammad Yusuf ijod qilgan mavzularini aytadi.

Hozir sizlar bilan “Muhammad Yusufning ijod charxpalagi” o‘yini o‘ynaymiz.

Charxpalakda qaysi mavzu chiqsa, sizlar shu mavzuga oid she’rni ifodali aytasiz.

Charxpalak aylantiriladi. O‘quvchilar undagi mavzuga oid she’rlar aytadi.

4-shart.

“Men haqimda she’r bilasizmi?” o‘yini. O‘quvchilarga ot, kapalak, turna, yalpiz, lolaqizg’aldoq, binafsha va boshqa rasmlar yopishtirilgan tarqatmalar beriladi. Qaysi rasm chiqsa, o‘quvchilar bunga she’r aytadilar.

5-shart.

FSMU metodi orqali Muhammad Yusuf she’rlariga ta’rif beriladi. Guruhlar tarqatmani tortishadi. Unda chiqqan savolni yoritadilar.

1-guruhga. Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she’rlari haqida fikrlaringizni bildiring.

Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

Ko‘rsatilgan sababni isbotlovchi misollar keltiring.

Fikringizni umumlashtiring.

2-guruhga.

Muhammad Yusuf haqida ijodkorlarning fikrlaridan misol keltiring.

Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misollar keltiring

Fikringizni umumlashtiring.

6-shart. Bunda o'quvchilar ijrosida "Uch o'gil va bir qiz" rivoyati sahnalashtiriladi.

7-shart. Guruhlardan vakillar chiqib Muhammad Yusuf ijodi bo'yicha "Bahru bayt" o'ynaydilar.

So'ng barcha ballar jamlanadi. G'olib guruh aniqlanadi. G'olib guruh o'quvchilari a'lo baholar bilan baholanadi va Muhammad Yusuf yaxshi ko'rgan "Lolaqizg'aldoqlar" bilan rag'batlantiriladi.

Aziz o'quvchilar, mana darsimiz ham yakuniga yetib bormoqda. Kelinglar, Muhammad Yusufga tahrif beramiz.

M-maqtovga loyiq shoir

U-ulug' zot

H-har tomonlama yetuk

A-armonga aylangan shoir

M-mard inson

M-millat faxri

A-(buyuk) ajdodlar davomchisi

D-donolar donosi

Y-yiqilmas inson

U-unutilmas yulduz

S-sohir qalam sohibi

U-ulkan iste'dod egasi

F-fidoiy inson

O'qituvchi:

Demak, o'quvchilar Muhammad Yusufni qancha ta'riflasak shuncha oz. Darsimizning so'nggida, bir zum shoir xotirasini yodga olaylik.

“Millatning dardiga darmon shoirim,

Endi o‘z xalqiga armon shoirim.

Yo‘q, sening o‘lganing yolg‘on shoirim.

Nahot ajal yo‘lin bo‘lmaydi to‘sib,

Qandoq ketib qolding, Muhammad Yusuf ? ”,- deb o‘qituvchi Muhammad

Yusuf portreti tushirilgan rasmga gul qo‘yadi. Shundan so‘ng, o‘quvchilar ham bittadan she‘r aytib, ular ham Muhammad Yusuf portretiga gul qo‘yadilar:

1-o‘quvchi:

Balqib turgan baxtning jarangiday xush,

She‘r o‘qib elingni qilarding sarxush,

Qayga shoshding, inim, tobutingdan tush.

Qandoq ketib qolding Muhammad Yusuf.

2-o‘quvchi:

Demagin sen bilan bitta jonketdi,

Qancha yozilmagan she‘r, doston ketdi.

Tangri senga bergan zo‘r imkon ketdi.

Nolamdan tikonlar chiqmoqda o‘sib,

Qandoq ketib qolding Muhammad Yusuf.

3-o‘quvchi:

Har nafas ko‘zlarim o‘ngidadirsan,

Mehring bilan mehrim rangidadirsan,

O‘, endi ularning ohangidasan,

Qizlaring turishar sochlari to‘zib,

Qandoq ketib qolding Muhammad Yusuf.

4-o‘quvchi:

Yulduz yo‘lga chiqdi seni axtarib,

G‘ ulomjon, G‘iyoslar g‘aribdan g‘arib,

Hofizlar bir kunda qoldilar qarib,

Nahot seni boshqa ko‘rmaslar qaytib,

Qandoq ketib qolding Muhammad Yusuf.

O'qituvchi: Shu bilan darsimiz o'z poyoniga yetdi. Men Muhammad Yusufning "Tilak" she'ri bilan darsni yakunlamoqchiman.

***Tilak***

*Har kimning ham sochlariga oq tushsin,*

*Ajin tushsin yuzlariga, dog' tushsin.*

*Har kimning ham quvvat ketib belidan,*

*Qo'llariga aso-bir tayoq tushsin.*

*Iymoni sog', yuzga kirib yorug' yuz,*

*To'ylar ko'rib yelkasidan tog' tushsin.*

*Va jismiga so'nggi safar oldidan,*

*O'z o'g'lining qo'ldan tuproq tushsin.*

**Uyga vazifa:** "Tilak" she'riga "Ikki qismli kundalik" texnologiyasi asosida fikrlaringizni yozib keling. Ushbu metod chizmasini e'tiboringizga havola etamiz. Bu pedagogik texnologiya bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi. 1-bosqichda o'quvchi she'rni o'qib chiqadi. 2 - bosqichga ko'ra, daftarlarini vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lib, 3-bosqichga ko'ra chap tomoniga muallif g'oyalari - Har kimning ham sochlariga oq tushsin, Ajin tushsin yuzlariga, dog' tushsin kabi so'zlarni yozishlari aytiladi. 4-bosqichga ko'ra, o'ng tomonga o'quvchi mazkur so'zlar izohini yozadi, yaxshi o'qilgan she'r haqidagi fikrlarini umumlashtirib aytadi. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin, sinfda va sinfdan tashqari o'qish paytlarida amalga oshiriladi.



SHOIR FIKRI	O‘QUVCHI FIKRI
 <p>Har kimning ham sochlariga oq tushsin, Ajin tushsin yuzlariga, dog’ tushsin. Har kimning ham quvvat ketib belidan, Qo‘llariga aso-bir tayoq tushsin.</p>	 <p>Tilakni qarang! Oqil, odil odamlar Yaratgandan o‘ziga tilagan ezgu niyatlarni o‘zgalarga ham ilinib yashaydi. Baxt tilashdan oson niyat yo‘q. Baxtli bo‘lish uchun kurashishni hamma ham eplay olmaydi. Satrlarda pok va samimiy insoniy tuyg‘ularni sezish qiyin emas.</p>

Darsni xulosalar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy darsga bo‘lgan talab, o‘quvchi ongi va qiziqishlarining kengayishi, talabning ortib borishi bizni yanada faollikka, tirishqoqlikka, izlanuvchanlikka chorlaydi. Hozirda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunish, o‘zlashtirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash, ularda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash. Shaxsning to‘laqonli kamol topishi uchun, kelajakning ishonchli, mustahkam poydevori qilib shakllantirish bizning barcha faoliyatimizning bosh asosi bo‘lmish bir soatlik darsga bog‘liq.

Ushbu dars ishlanmalardagi interfaol metodlar o‘quvchida zukkolik, tirishqoqlik, chaqqon va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Mavzunu tabaqalashtirish (guruhlash), modullarga bo‘lib o‘rgatish, o‘quvchilar hamkorligidagi darsni tashkil qilish, mustaqil kichik tadqiqotlarga yohnaltirish bilim samaradorligiga olib kelishi aniqdir.

## STEAM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlanganligi hamda, mazkur dasturda ilg‘or xorijiy tajriba asosida ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, infratuzilmani yaxshilash, sohani raqamlashtirish bo‘yicha dolzarb yo‘nalishlar belgilangan. Shuningdek, maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. «Barkamol avlod» maktablari faoliyati va infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha besh yillik dastur ishlab chiqish, ularda “STEAM” yo‘nalishlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Ushbu dars ishlanma farmonlarni ijrosi sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qo‘llaniladi.



Ma'lumki, davlatimiz rahbarining 2022-yil 11-maydagi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlangan. Mazkur dasturda ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, infratuzilmani yaxshilash, sohani raqamlashtirish bo'yicha dolzarb yo'nalishlar belgilangan. Shuningdek, maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. «Barkamol avlod» maktablari faoliyati va infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish, ularda "STEAM" yo'nalishlari bo'yicha to'garaklar tashkil etish vazifasi qo'yildi.

STEAM<sup>21</sup> agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni bilishimiz mumkin: **STEAM bu – S – science, T – texnology, E – engineering, A – art va M – mathematic.** bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta so'zni yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM asosan tabiiy fanlarga mos, biroq biz adabiyot darsida ma'lum qismlaridan foydalandik. Muhammad Yusufning "Lolaqizg'aldoq" she'rini o'qish, tushunish va yod olishda STEAMdan foydalanamiz.

***"Lolaqizg'aldoq"***

*Mendan nima qolar:*

*Ikki misra she'r,...*

*Ikki sandiq kitob,*

*Bir uyum tuproq.*

*Odamlar ortimdan*

*Nima desa der,*

*Men seni o'ylayman*

*O'zimdanda ko'proq –*

*Lola, lolajonim, Lolaqizg'aldoq!*

---

<sup>21</sup> Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi. Majmua. – Namangan: 2019. – B. 43.

Umumiy o‘rta maktabda Muhammad Yusuf ijodini o‘rgatish ayni bahor fasli (aprel oyi)ga to‘g‘ri keladi. Shu sababli maxsus sayohat darsi uyushtirib, bolalarni maktabdan uzoq bo‘lmagan tabiat qo‘yni (qir-adirlar)ga olib chiqamiz. O‘zbekistonning qaysi burchagi bo‘lmasin quyidagi manzaraga duch kelamiz.

Tabiat qo‘ynidagi o‘quvchilar lolalar rasmini chizishga kirishadilar.

Ba’zi o‘quvchilar rangli qog‘ozlardan lola gulini yasab ham qo‘yadilar. Bu jarayonlar bolalardagi dizayn, rassomlik qobiliyatlarini aniqlashimizda qo‘l keladi. Shundan so‘ng shoirning “Lolaqizg‘aldoq” she‘rini o‘z tilidan audio yozuv orqali bolalarga eshittirish, ularda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarga motivatsiya<sup>22</sup> (lot.movere – faoliyatga undash) ham beradi va injenerlik qobiliyatlarini oshiradi. “Lolaqizg‘aldoq” she‘ri bilan aytiladigan dilrabo qo‘shiq ham bola qalbiga ezgu-fazilatlar bilan birga qo‘shiqni musiqaga hamohang, jo‘r bo‘lib ijro etish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga STEAMning **texnologiya, muhandislik, san‘at** qismlarini o‘quvchilar bajarganiga guvohi bo‘lamiz. Bizda STEAMning **tabiiy fanlar va matematika qismlari qoldi. Science, ya’ni fanga adabiyot va matematika tanlaymiz.**

So‘zlarning ma’no munosabatini matematik funktsiya formulasi usulida o‘rganish **“Matematika olami”**. “Lolaqizg‘aldoq” she‘ridan ba’zi so‘zlarni ajratib olamiz. Masalan, “ko‘z” so‘zining “U” (igrik) tomoni uning qarash faoliyati funksiyasini bajarishda kuzatilsa, uning “X” (iks) tomoni matnda boshqa so‘zlar bilan munosabatda qaysi funksiyasida kelishi bilan belgilanadi. Bunda “X” noma’lumlikka ishora qilishi bois so‘zning ham “X” tomoni, ya’ni uning qaysi ma’noda qo‘llanganligini anglashga undaydi. Shundan kelib chiqib, “ko‘z” so‘zining funktsiya formulasini quyidagicha tuzish mumkin:

---

<sup>22</sup> Husanboyeva Q., Niyozmetova R., Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2018. – 219 b.

**L – ko‘z (u- o‘z ma’no) = 5x (x-ko‘chma ma’nosi)**

Insonning ko‘rish a‘zosi	ko‘z	uzukning ko‘zi taxtaning ko‘zi derazaning ko‘zi buloqning ko‘zi ishning ko‘zi odamning ko‘zi
--------------------------	------	---

Topshiriq:

Namuna: L-eshik (u tomon o‘z ma’no uyning eshigi) = 1x ko‘chma ma’no, taqdir eshigi.

L- osh (u) = 1x

L-etak (u) = 2x

L-yoqa (u) = 2x

L-quloq (u) = 4x

L- og‘iz (u) = 4x

Omonimlar.

M: ot (o) = 4x = 3 (3+1) shu tenglama orqali o‘quvchi “ot” so‘zining shakldosh (omonim) so‘z sifatida to‘rtta alohida lug‘aviy birlik ekanligi, ulardan uchtasi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, “ot” – ism, ot - hayvon, ot - so‘z turkumlaridan birining nomi ma’nolarini, boshqasi esa fe‘l so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, “harakat” tushunchasini anglatishni yodga oladi.

**Topshiriq:**

Yuz (o) = 2x = 2 (1+1)	tugma (o) = 2x = 2 (1+1)
tut (o) = 2x = 2 (1+1)	uch (o) = 3x = 3 (1+1+1)
tik (o) = 3x = 3 (2+1)	to‘r (o) = 3x = 3
	bugun (o) = 3x = 3 (2+1)

**Sinonimlar.**

Yuz (s) = s (8) = (4x2) Yuz so‘zi dominant hisoblanib, qolgan variantlar yo uslubiy, yo ijobiy – salbiy belgisi, yo tarixiyli jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shundan kelib chiqib, sinonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan “s (8)” belgili “yuz” so‘zini sakkizta ma’nosidan to‘rtasi ( chehra, jamol, oraz, ruxsor) badiiy uslubga daxldorligi, yana to‘rtasi (aft, bashara, turq, bet) salbiy ma’noga egaligi tufayli to‘rtning ikkiga ko‘paytmasi ko‘rinishidagi s (4x2) funksiyasi formulasi bilan ifodalanadi. **Topshiriq:**

<b>lab (s) = s (3)</b>	<b>quyosh (s) = s (5)</b>
<b>yugurmoq (s) = s (3)</b>	<b>oy (s) = s (5)</b>
<b>vatan (s) = s (4)</b>	<b>odam (s) = s (5)</b>
<b>kul (s) = s (6)</b>	<b>dunyo (s) = s (6)</b>
<b>oz (s) = s (6)</b>	<b>orzu (s) = s (7)</b>
<b>bir (s) = s (6)</b>	<b>chiroyli (s) = s (9)</b>

**Natijalar:**

u-so‘z	lab	yugurmoq	vatan	quyosh	oy	odam	dunyo	oz	bir	orzu	chiroyli
X (ma’no doshlari)	3	3	4	5	5	5	6	6	6	7	9

Xullas, har bir bola qalbida quyosh yashirin, faqatgina shu quyoshni porlashiga imkon bersak bas. Xorij, rivojlangan mamlakatlar adabiyot darsliklarini

Saydahmedova Nigora Sulaymonovna

kuzatib, o'zimizning mavjud adabiyotlar bilan solishtirib, ta'limda shoir Muhammad Yusuf ijodini o'rganish mavzusi orqali bolani kamolatga yetaklaymiz.



## **“Binar” ma’ruzasi**

### **Darsning mavzusi: Muhammad Yusufning “Lolaqizg’aldoq”, “Biz baxtli bo’lamiz” she’rlari tahlili. (8-sinf. VI chorak)**

Ushbu dars ishlanma Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi 8-sinf adabiyot darsi uchun mo’ljallangan. Dars ikki mutaxassislar, NamDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi N. Saydaxmedova hamda, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, yozuvchilar uyushmasi a’zosi Sh. Hamidovlar tomonidan olib borilgan. Dars davomida yangi metodlardan “Xabaringizmi bormi?”, STEAM ta’lim texnologiyasi, baholashda esa “Guldonni to‘ldiring” usullaridan foydalanilgan.

#### **Darsning maqsadi:**

- a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarni Muhammad Yusuf she’riyatida ilgari surilgan g‘oyalar hamda “Lolaqizg’aldoq”, “Biz baxtli bo’lamiz” she’rlari matni bilan tanishtirish, she’rni tahlil qilishga o‘rgatish;
- b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbiga yuksak insoniy fazilatlarni singdirish, ma’naviy dunyosini boyitish;
- c) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar qalbiga kichik vatan – oilaga muhabbat hissini singdirish, uning muqaddasligini qadrlash, ko‘z qorachig’idek asrash mas’uliyatini o‘stirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalanadigan usullar: “Xabaringizmi bormi?” usul, STEAM ta’lim texnologiyasi.

Darsda foydalanadigan jihozlar: slaydlar, Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari, tarqatmalar, rag‘abat kartokchilar.

Baholashda “Guldonni to‘ldiring” usulidan foydalanamiz.





Darsning borishi:

### **I. Tashkiliy qism.**

- 1- o'qituvchi (Sh. Hamidova ijod maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi) shoirning "Andijon" va
- 2- o'qituvchi (NamDU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi) shoirning "Namangan" she'rlari bilan darsni boshlashadi.

O'qituvchilar bilan salomlashilib, davomat aniqlanadi, sinf xonasi va o'qituvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotning borishi haqida tushuncha berilib, yangi adabiy nashrlar bo'yicha axborot almashiniladi.

O'qituvchilar ikki guruhga bo'linadi: "Lolaqizg'aldoq", "Rayhon".

### **II. O'tilgan mavzuni so'rash:**

O'qituvchi: Aziz O'qituvchilar, biz o'tgan darsda iste'dodli shoir, nosir, tarjimon, publitsist Muhammad Yusuf hayoti va ijodi bilan tanishgan edik va uyga vazifa sifatida ijodkorning ijodiy faoliyatiga doir qo'shimcha ma'lumotlar to'plab kelish topshirilgan edi. Bugun o'rganganlarimiz asosida to'plagan bilimlarimizni sinovdan o'tkazamiz. Hozir guruhlar "Eng.eng.eng" usulidan foydalanib savollarga javob berishadi. Tez va to'g'ri javob bergan guruh rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi. Rag'bat kartochkasini yig'ishda "Guldonni to'ldir" usulidan foydalanamiz.

**"Lolaqizg'aldoq"** guruhiga savollar:

Eng birinchi she'riy to'plami?

Eng birinchi ta'lim olgan maskani?

Eng birinchi farzandi?

Eng yoqtirgan ijoddagi mavzusi?

**“Rayhon”** guruhiga savollar:

Eng birinchi unvoni?

Eng yoqtirgan guli?


Eng birinchi yozgan dostoni?

Eng birinchi tahallusi?

Guruhlarning javoblari tinglanib, song navbatdagi bosqichga o'tiladi. Bu bosqichda guruhlar oldindan tayyorlab kelgan Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida to'plagan ma'lumotlarni ko'rgazmalarida taqdimot qilishadi.

**“Lolaqizg'aldoq”** guruhi Muhammad Yusuf lirikasi haqida so'z yuritadi:


**“Rayhon”** guruhi Muhammad Yusuf tarjimonlik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:



Guruhlarning javoblari o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi, qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

MUHAMMAD YUSUF – TARJIMON	
Diop Mamadu Traope	“So‘zlarim senga”
Xarivontray Bachchan	“Toshkentdagi xabarlar”
Sh. Appazov	“Kuz”, “Junjikma”
Neruda Pablo (Chili)	“Sotqin generallar”
Mikola Lukiv	“Otam xatlari”, “Obolonida”
Jabron Xalil Jabron	“Vardaxonim”

“**Lolaqizg’aldoq**” guruhi Muhammad Yusufning publitsist sifatidagi faoliyatini yoritish orqali uning adabiy tanqid, san’atshunoslik, tarjimonshunoslik rivojlanishiga ham munosib hissasi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi:



### III. Yangi mavzu bayoni.

**O‘qituvchi:** Muhammad Yusuf she’riyatini o‘rganishda davom etamiz. Bugungi darsimizda adibning “Lolaqizg’aldoq”, “Biz baxtli bo‘lamiz” she’rlari matni va ularda ilgari surilgan g’oyalar bilan tanishamiz.

**O‘qituvchilar:** she’rlarni yoddan ifodali o‘qiydi va slaydlar yordamida she’rlarda ilgari surilgan g’oyalar haqida fikr yuritadi.

Shundan soʻng oʻqituvchi tomonidan guruhlariga yozma **“Aqliy hujum”** usulidan foydalanib Muhammad Yusuf sheʼriyatidagi ramziy obrazlar xususida savollar beriladi.



**Oʻqituvchi:** Ramz nima?

**“Lolaqizgʻaldoq”** guruhi: Ramziylik – sheʼriy tafakkurning ifoda shakli boʻlib, olam sirlarini timsollar vositasida tadqiq etishdir. Oʻqituvchi anglashi murakkabroq boʻlgan axloqiy-maʼnaviy sifatning shu sifatlarga koʻproq ega boʻlgan narsa va jonvorlar orqali ifodalanishiga **ramz** deyiladi.

**Oʻqituvchi:** **“Lolaqizgʻaldoq”** sheʼrida lolaqizgʻaldoq qanday ramziy maʼnoga ega deb oʻylaysiz? Yoki **“Biz baxtli boʻlamiz”**, yoki boshqa sheʼrlaridagi **“rayhon”** qanday ramziy maʼnoga egaligi haqida gapiring.

**“Lolaqizgʻaldoq” guruhi:** **“Lolaqizgʻaldoq”** deyarli koʻplab ijodkorlarni oʻziga jalb etgan. E. Vohidov, A.Oripov, R.Parfi sheʼriyatida alohida oʻrin tutadi. Muhammad Yusuf esa nafis, nozik, himoyasiz gul ekani uchun, uni yorga oʻxshatyapti. **“Lolaqizgʻaldoq”** erkin kulsa, hidlari sochilmay turib yerga

to‘kiladi, hazon bo‘ladi. Shoir hayolan “Lolaqizg’aldoq” bilan so‘zlashadi, unga nasihat qiladi, ogohlantiradi:

Men ketsam, yomondan  
Yiroq bo‘l, o‘hu,  
Chunki sen chiroyli,  
Ko‘rkli bir juvon.  
Yomon kunlar bir kun  
Yaxshi bo‘lar-u,  
Yomon odam yaxshi  
Bo‘lmas hech qachon...  
Yasha chegarada  
Turgandek ogoh,  
Lola, lolajonim,  
Lolaqizg’aldoq.

Lolaqizg’aldoq ona tabiatning bir mo‘jizasi, tiriklik belgisi, hamisha ezgulikka chorlovchi timsol. Xokisor ayol timsoli.

**“Rayhon” guruhi:** **“Rayhon”** – ramziy lirikaning nodir namunasi. Rayhon – gul. Mumtoz asarlarimizdan ma’lumki, ayollar turli gullarga o‘xshatilgan. Biroq “rayhon” gulni deyarli uchratmaymiz. Boshqa gullardan o‘zining alohida ifori bilan ajrab turganligi sabab, shoir yorini ayol sifatida o‘zi uchun, qolaversa oilada, jamiyatda tutgan o‘rnini alohida ekanligini o‘qtirmoqchi bo‘ladi.

**O‘qituvchi:** Muhammad Yusuf obrazlarni, asosan, nimadan tanlaydi?

**“Lolaqizg’aldoq” guruhi:** Muhammad Yusuf ramziy obrazlarni asosan tabiatdan oladi. Bu bejiz emas. 1-she’riy to‘plami ham bejizga “Tanish teraklar” deb nomlanmagan. Tiriklikning ibtidosini tabiatda ko‘rgan shoir insoniy histuyg’ularni tabiat voqealariga bog‘lab qiyoslaydi. Masalan: laylak, turna, qo‘chqor, qo‘ng’iz, kapalak, jayron, qarg’a, binafsha, boychechak, lola, rayhon, jiyda, atirgul, momaqaymoq kabi ramziy obrazlarning she’riy dunyosi keng.

Guruhlarning savollarga bergan javoblari o‘qituvchi tomonidan umumlashtirilib, faol guruh rag‘batlantiriladi.

## IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash STEAM ta'lim texnologiyasining 3 ta qismidan foydalanamiz. STEAM ta'lim texnologiyasi to'g'risida o'qituvchilar ma'lumot beradilar. "Lolaqizg'aldoq" she'rini o'z tilidan audio yozuv orqali bolalarga eshittirish, ularda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish bilan birga ularga motivatsiya (lot.movere – faoliyatga undash) ham beradi va injenerlik qobiliyatlarini oshiradi. "Lolaqizg'aldoq" she'ri bilan aytiladigan dilrabo qo'shiq ham bola qalbiga ezgu-fazilatlar bilan birga qo'shiqni musiqaga hamohang, jo'r bo'lib ijro etish imkoniyatini taqdim etadi. So'zlarning ma'no munosabatini matematik funktsiya formulasi usulida o'rganish **"Matematika olami"**. "Lolaqizg'aldoq" she'ridan ba'zi so'zlarni ajratib olamiz. Masalan: "ko'z" so'zining "U" (igrik) tomoni uning qarash faoliyati funksiyasini bajarishda kuzatilsa, uning "X" (iks) tomoni matnda boshqa so'zlar bilan munosabatda qaysi funksiyasida kelishi bilan belgilanadi. Bunda "X" noma'lumlikka ishora qilishi bois so'zning ham "X" tomoni, ya'ni uning qaysi ma'noda qo'llanganligini anglashga undaydi. Shundan kelib chiqib, "ko'z" so'zining funktsiya formulasini quyidagicha tuzish mumkin:

$$L - \text{ko'z (u- o'z ma'no)} = 5x \text{ (x-ko'chma ma'nosi)}$$

<b>Insonning ko'rish a'zosi</b>	<b>ko'z</b>	<b>uzukning ko'zi</b> <b>taxtaning ko'zi</b> <b>derazaning ko'zi</b> <b>buloqning ko'zi</b> <b>ishning ko'zi</b> <b>odamning ko'zi</b>
---------------------------------	-------------	---

**Guruhlarga topshiriq:**

**Namuna:** L-eshik (u tomon o‘z ma’no uying eshigi) = 1x ko‘chma ma’no, taqdir eshigi.

L- osh (u) = 1x

L-etak (u) = 2x

L-yoqa (u) = 2x

L-quloq (u) = 4x

L- og’iz (u) = 4x

**“Lolaqizg’aldoq” guruhi. Omonimlar.**

**M:** ot (o) = 4x= 3 (3+1) shu tenglama orqali o‘quvchi “ot” so‘zining shakldosh (omonim) so‘z sifatida to‘rtta alohida lug‘aviy birlik ekanligi, ulardan uchasi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, “ot” – ism, ot - hayvon, ot - so‘z turkumlaridan birining nomi ma’nolarini, boshqasi esa fe‘l so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, “harakat” tushunchasini anglatishni yodga oladi.

**Topshiriq:**

Yuz (o) = 2x = 2 (1+1)	tugma (o) = 2x = 2 (1+1)
tut (o) = 2x = 2 (1+1)	uch (o) = 3x = 3 (1+1+1)
tik (o) = 3x = 3 (2+1)	to‘r (o) = 3x = 3
	bugun (o) = 3x = 3 (2+1)

**“Rayhon” guruhi. Sinonimlar.**

Yuz (s) = s (8) = (4x2) Yuz so‘zi dominant hisoblanib, qolgan variantlar yo uslubiy, yo ijobiy – salbiy belgisi, yo tarixiyliги jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shundan kelib chiqib, sinonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan “s (8)” belgili “yuz” so‘zini sakkizta ma’nosidan to‘rtasi ( chehra, jamol, oraz, ruxsor ) badiiy uslubga daxldorligi, yana to‘rtasi (aft, bashara, turq, bet) salbiy ma’noga egaligi tufayli to‘rtning ikkiga ko‘paytmasi ko‘rinishidagi s (4x2) funktsiyasi formulasi bilan ifodalanadi. **Topshiriq:**

<b>lab (s) = s (3)</b>	<b>quyosh (s) = s (5)</b>
<b>yugurmoq (s) = s (3)</b>	<b>oy (s) = s (5)</b>
<b>vatan (s) = s (4)</b>	<b>odam (s) = s (5)</b>
<b>kul (s) = s (6)</b>	<b>dunyo (s) = s (6)</b>
<b>oz (s) = s (6)</b>	<b>orzu (s) = s (7)</b>
<b>bir (s) = s (6)</b>	<b>chiroyli (s) = s (9)</b>

**Natijalar:**

u-soʻz	lab	yugurmoq	vatan	quyosh	oy	odam	dunyo	oz	bir	orzu	chiroyli
X (maʼno doshlari)	3	3	4	5	5	5	6	6	6	7	9

**1-oʻqituvchi:** Aziz oʻquvchilar! Biz Choʻlpon, Muhammad Yusuf singari shoirlar yurtida tugʻilganimizdan faxrlanamiz. Bugungi dars orqali shoirni yana bir bor tanidik, ularning badiiy merosidan bahramand boʻldik.

**1-oʻqituvchi:** Muhammad Yusufning ijoddagi yangi qirralarini oʻrganishga harakat qildik. Shoir shaxsidan oʻrnak oldik. Shunday ekan, har birimiz Vatanimizni dunyodagi eng ilgʻor davlatlar darajasiga koʻtarishdek ulugʻ maqsad sari olgʻa intilmogʻimiz, mustaqilligimizning qadriga yetib, uni koʻz qorachigʻiday avaylab asramogʻimiz kerak.

#### V. Baholash va ragʻbatlantirish.

Guruhlarlar guldonidagi ragʻbat kartochkalari hisoblanib, gʻolib guruh eʼlon qilinadi. Barcha oʻquvchilar ishtirokiga koʻra baholanadi.






**VI. Uyga vazifa.**  
Shoir she'rlaridan yod olish.









## **Muhammad Yusuf ijodi bo'yicha "SAYOHAT" darsi**

Turli fan o'qituvchilari hamkorligida uyushtiriladigan sayohatlar o'quvchilarning bilimini boyitadi, dunyoqarashini, tasavvurini kengaytiradi; mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi; tabiatga, ona-Vatanga muhabbat hislarini tarkib toptiradi. Maktab o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari sayohat darslari ahamiyatga ham ega. Sayohat darslari ularda moddiy dunyoqarash va mehnat madaniyatini shakllantiradi, mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, tabiatga muhabbatini tarbiyalaydi. Har yili 26-aprelda Muhammad Yusuf tug'ilib o'sgan xonadon mehmonlar bilan to'ladi. Bularning orasida "Yosh kitobxon", "Muhammad Yusuf izdoshlari", "Adabiyotchilar", "Kimyogarlar", "Yosh biologlar" kabi to'garak a'zolari ham sayohatga kelishadi. Shu sanada shoir xonadoniga sayohat tashkil qilish ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy sayohat dars ishlanma barcha fan o'qituvchilariga metodik tavsiya hisoblanadi.

**O‘zbek xalqining sevimli ijodkori, O‘zbekiston xalq shoiri, Muhammad Yusuf  
tavalludinig 70 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan**

**Sayohat darsi**

**Sayohat vaqti:**

---- -----2024- y

**Soat: 6:00 da**

**“Tasdiqlayman”**

**Namangan shahar**

**52-maktab direktori**

**M. M. Sotivoldiyeva**

Bu tadbir bir necha fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda, oldindan kelishilgan, rejalashtirilgan holda tashkil qilinadi: sayohatning maqsadi, vazifalari, sayohat manzil –xaritasi, amalga oshiriladigan ishlar tartibi, mas’ul shaxslar, sayohatga jalb etilgan o‘quvchilarning ro‘yhati (ota-onalar bilan kelishilgan holda) qat’iy belgilanadi, o‘quv yurti rahbari tomonidan tasdiqlanadi va buyruqlashtiriladi.

**Yo‘l xaritasi.** (Muallif Namangan shahar 3-umum ta’lim maktabi oliy toifali, geografiya fani o‘qituvchisi A.Ahmadjonova) (1-rasmga qarang).

Shoir uy muzeyiga sayohatlar, Namangan viloyatida 2004-yildan 2021-yillar orasida an’anaviy tarzda davom etmoqda. Masalan, Kosonsoy tumani 12 - umumiy o‘rta ta’lim maktabi ijodiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar targ‘ibotchisi, oliy ma’lumotli muhandis, A’zamjon Mamadjanov tomonidan sayohatlar tashkil etiladi. Sayohatga har yili 60, 70 nafar ijodkor, izlanuvchi o‘quvchilar aniqlandi sayohatga olib borildi. O‘quvchilar 1 ta “ISUZI” avtobusda olib borildi, 200 litr yoqlig‘i quyildi.

Bu yil ham 11. 04. 2022 dan “Muhammad Yusuf asarlari bilimdoni” ko‘rik – tanlovi maktablar o‘rtasida e’lon qilingan. (1-ilovaga qarang). Tanlovda g‘oliblar aniqlanib homiylar tomonidan sayohat olib boriladi. Asosan, harajatlar homiylar, targ‘ibotchi A’zamjon Mamadjanov tomonidan qoplandi. Sayohat darslariga ota-onalar, o‘qituvchilar ham taklif etiladi. (2- rasmga qarang).

**DASTLABKI ISHLAR:** O‘quvchilar jamoasining muayyan yo‘nalish bo‘yicha o‘quv, tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish va o‘rganish maqsadidagi bir kun davom etadigan avtobus va piyoda safari-sayyohlik hisoblanadi;

- Maxsus anjomlar: planshet, med aptechka;
- shaxsiy buyumlar: ryukzak, kosa, kurushka, qoshiq; yomg‘ir po‘sh, fotoapparat, yon daftarcha, ruchka;
- hujjatlar: marshrut varaqasi;

Sayohat davomida adabiyot ( o‘qituvchi: G. Turdiyeva), geografiya (o‘qituvchi: A.Ahmadjonova), biologiya zoologiya, (o‘qituvchi: D.Qambarova), kimyo (o‘qituvchi: N.To‘xtaboyeva), tarix (o‘qituvchi: S.Olimjanov), tas‘viriy san‘at (o‘qituvchi: S.Tursunov), musiqa (o‘qituvchi: Sh. To‘xtasinova), jismoniy tarbiya o‘qituvchi (o‘qituvchi: M.Roziqova)lari birgalikda ish tashkil qilishdi. Fanlarni uyg‘unlashtirildi, sayohatda fanlar bo‘yicha to‘garak a‘zolari bo‘lishdi, chunki to‘garak a‘zolarining o‘z vazifasi bor, natijada, istirohat bog‘dagi darah turlari, o‘simliklar, hashorotlar, qushlarning hayot tarzini o‘quvchilar hamkorlikda o‘rganishdi.

Sayohat tashkil qiluvchi rahbarlar adabiyot o‘qituvchisi: G. Turdiyeva, geografiya o‘qituvchisi: A.Ahmadjonovalar quyidagilarni amalga oshirishdi:

- Sayohat maqsadi va boriladigan manzilni aniqlashdi;
- Guruh tuzish qoidasiga amal qilishdi;
- Sayohatchilar ota-onasi bilan aloqada bo‘lishdi;
- Sayohatchilar yoshi, malakasi sayohat darajasiga mos keldi;
- Sayyohlar tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi aniqlandi;
- Tashkiliy yig‘ilishni vaqtida o‘tkazdilar;
- Bolalar ro‘yxati va ularni vazifalarini belgiladilar.

**Bolalar ro‘yxati. (1-jadvalga qarang).** Sayohatchilarning vazifasi: ovqatlanishda sanitar (tozalikka) epidimalogiya qoidalariga rioya qilish, fotografiya, kundalik yozish va boshqalar.

### **Sayohat rejasi. (2 –jadvalga qarang)**

Sayohatlarni o‘tkazishga kerakli payt XTB ruxsati yoki maktab ichki intizomi, sayohat masofasidan kelib chiqib direktor ruhsat berishi mumkin. Sayohatni o‘tkazish hamda uning rahbari bilan o‘rinbosarini tayinlash to‘g‘risida maktab bo‘yicha buyruqni tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi olindi. Marshurut tasdiqlangandan keyin marshurut daftari yoki varog‘i bo‘lishi lozim, bir kunlik sayohat bo‘lgani uchun marshurut tasdiqlangan varog‘ berildi. Hisob-kitob aniq va kunlik ratsion asosida bo‘lishi kerak. Barcha harajatlar hisoblab chiqiladi va mablag‘ otaliq yoki homiy tashkilot, ota-onalar homiyligi asosida tuziladi. Ota-onalar homiyligi asosida tuzildi shundan so‘ng o‘quvchilar sayohat odob-ahloq qoidalari bilan tanishdilar, o‘z vazifa va burchlarini yaxshi tushunib oladlar.

### **Sayohat darsining maqsadi**

Ma’lumotlar shoirning 2 ta saylanmasi<sup>23</sup> asosida tayyorlandi, shuningdek, Marhamat tumani, Oloy tizmasining tog‘ etaklari va yon bag‘irlari haqida, Ulug‘tog‘ (balandligi 1,5 ming metr), Tuyamo‘yin adirlari (920 m) to‘g‘risida, Iqlimi-keskin kontinentaligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Tuproqlari, asosan, bo‘z tuproq, adirlar arziq, etaklari o‘tloqi bo‘z. Yovvoyi o‘simliklardan shuvoq, sho‘ra va boshoqlilar, efemer va efemeroidlar, soy bo‘ylarida va yerosti suvlari yuzaroq joylarda tol, terak, turli xil butalar o‘sishi. Yovvoyi hayvonlardan tulki, bo‘ri, chiyabo‘ri, quyon yashashi haqida ma’lumotlar aniqlandi va ma’lumotlar jadvallarga kiritildi. (3-jadvalga qarang)

O‘quvchilarga bajarish tavsiya etiladigan topshiriqlar ilovalarda berilgan (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 jadvallarga qarang).

Shoir she’rlarida onamastik birliklarning ishlatilishi bo‘yicha tilshunoslar va geografiya fani to‘garak a‘zolari ish olib boradilar. She’rlarida uchraydigan

---


<sup>23</sup> Yusuf Muhammad. Saylanma. “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent.:2019. “Халқ бўл, элим”, – Toshkent.: “Ўзбекистон” нашриёти. 2018.




антрапонимлар<sup>24</sup> (joy nomlari) Buxoro, Balx, Hirot, London, Toshkent, Asaka, Samarqand, Parij..., gidronimlar<sup>25</sup> (suv ob'ekti nomlari) orol, Sirdaryo, Amudaryo, Sahroi kabir, daryo, jilg'a, hovuz. Oronimlar<sup>26</sup> (tog', dara, g'or nomlari)... tog', Asqartog', Ulug'tog'... Etnonimlar<sup>27</sup> (urug', qabila, millat nomlari) o'ris, qirimtatar, turkman,... kabi shoir qo'llagan motivlarni o'rganish yangi bilimlar hosil qiladi, fanlarni uyg'unlashtiradi.

## ILOVALAR

### 1-rasm



### 2-rasm



#### Taklifnoma!

Hurmatli -----  
Sizni ----- kuni 8 "A" sinfda bo'lib o'tadigan navbatdan tashqari o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishiga taklif etamiz. Yilishda ko'riladigan asosiy masala shoir Muhammad Yusuf uy muzeyiga sayohatdir. Barchangizni o'tkaziladigan yig'ilishda fikr-mulohazalaringiz bilan ishtirok etishingizni so'rab qolamiz.  
Maktab ma'muriyat

<sup>24</sup> Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. , антропоним-апеллятив-янги атоқли отни ясашга негиз бўлган шахс номи.– Наманган:, 2006, 16 б.

<sup>25</sup> Ўша китоб. Гидроним-(юн. – hudog-сув +опома –атоқли от) сувликдаги ҳар қандай (тфбийи ва сунъи) объектларнинг (океоним, пелагоним, лимноним, потамоним, гелоним) атоқли оти. Топоним тури. 25 б.

<sup>26</sup> Ўша китоб. Оронимика-топонимиканинг оронимларнинг пайдо бўлиши ва вазифавий хусусиятларини ўрганувчи тармоғи. 63 б.

<sup>27</sup>Ўша китоб. Этноним (юн.-halq +онома-атоқли от) ҳар қандай этнос (уруғ, қabila, элат,халқ, миллат ва б.)нинг номи. 95 б.

**1-jadval. Bolalar ro‘yxati.**

<b>№</b>	<b>Sayohatchi sinf 8 “A”</b>	<b>Sayohatchi sinf 9 “B”</b>
1.	Abdulhafizov Bilolxon	Abdumajidova Musammira
2.	Abdullayev Yunusxon	Ahmadaliyeva Roziyaxon
3.	Abdullayev Sobitxon	Ahmadullaeva Manzuraxon
4.	Akbarova Shahribonu	Abdurashidov Mubosher
5.	Avazxanov Yusufxon	Ahmadjonov Abdurahmon
6.	Dadamirzayev Ulug‘bek	G‘aybullayev Saydullo
7.	Hakimova Zulhayo	Habibullayeva Zahroxon
8.	Isoqjonov Muhammadali	Ibragimjonova Madina
9.	Mamadaliyev Ma‘rufjon	Jamolxonov Azizbek
10.	Mo‘minova Muhayyo	Jamolxonova Madina
11.	Ibrohimjon Olimjonov	Jo‘rayev Davlatbek
12.	Ortiqboyeva Mehribon	Kamoliddinov Fozilxon
13.	Parpiyeva Madina	Kamoliddinov Muxammadali
14.	Shamsiddinov Hasan	Mahmudova Iqbola
15.	Shamsiddinov Husan	Mamatov Javohir
16.	To‘raboyev Ibrohimjon	Sobirjonova Gulbahor
17.	Umarjonov Shohjahon	Tojimatov Ismoil
18.	Yoqubov Nasimxon	Valixanova Mahliyo
19.	Zokirova Nozimaxon	Xakimov A‘zamjon
20.		Xakimova Diyora
21.		Xasanboev Ozodbek
22.		Zokirova Zebiniso

**2- jadval. Sayohat rejasi.**

Kun	sana	Marshurut manzili	Harakatlanish usuli	Sayohat obe'kti va foydali ishlar	Marshurutlar (sayohlik yo'nalishi) quyidagicha bo'ladi
1.	26. 04.2022.	Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'i	Avtobusda va piyoda (lozim bo'lganda)	Shoirning uy muzeyi, shoir o'qigan maktab, Ulug'tog' etaklari, Tuyamo'yin adirlarini kuzatish, yozuvchi shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish	To'g'ri, radial, aralash, aylanma

**3-jadval. Shoir she'rlaridagi tabiat bilan bog'liq mavzularni aniqlab, namunalardan jadvalga soldilar.**

T/r	Shoir she'rlarida uchragan daraxt turlari (48 ta)	T/r	Shoir she'rlarida uchragan o'simliklar va gullar (37 ta)	T/r	Shoir she'rlarida uchragan hashorotlar va hayvonlar (33 ta)	T/r	Shoir she'rlarida uchragan qushlar (29 ta)
1.	Oq qayin	1.	Rayxon	1.	Jayron	1.	Qaldirg'och
2.	Terak	2.	Lolaqizg'aldoq	2.	Kiyik	2.	Qarg'a
3.	Qayin	3.	Paxta	3.	Kapalak	3.	Quzg'un
4.	Shotut	4.	Yalpiz	4.	Qulun	4.	Qirg'ovul
5.	Olma	5.	Bug'doy	5.	Yo'lbars	5.	Bulbul
6.	Terak	6.	Momaqaymoq	6.	Kalxat	6.	Qumri
7.	Tol	7.	Binafsha	7.	Toy	7.	Tustovuq
8.	Anor	8.	Arpa	8.	Qurt	8.	Turna
9.	Jiyda	9.	O'sma	9.	Ilon	9.	To'ti
10.	Archa	10.	Boychechak	10.	To'ng'iz	10.	Kaklik
11.	O'rik	11.	Jo'xori	11.	Nahang	11.	Qarg'a
12.	Qoragilos	12.	Yantoq	12.	Chayon	12.	Boyqush
13.	Behi	13.	Qamish	13.	Qo'ng'iz	13.	Oq qush
14.	Tut	14.	Beda	14.	Tuya	14.	Laylak
15.	Nok	15.	Atirgul	15.	Fil	15.	Chumchuq

**(4-jadval) Sayohat darsidan quyidagi xulosaga kelindi**

№	Adabiyot to'garagi	Kimyo to'garagi	Geografiya to'garagi	Biologiya to'garagi
	O'tgan taassurotlari bo'yicha insholar yozishdi, ommaviy kecha va tadbirlar (bayram, ertalik va boshqalar)da qatnashishdi	O'simliklarning kimyoviy, dorivor xususiyatlarini aniqlashdi, tezislar yozishdi.	Tabiiy material to'plash va rasmiylashtirish, kolleksiya, gerbariy, maket, model tuzish, maktabdan boshlab sayohat manziligaacha yo'l va tabiat xaritasini tuzishdi	Aniqlangan o'simlik va dorivor giyohlarni tarkibini o'rganishdi, yovvoyi hayvonlarni ham turini aniqlashdi (shu yerda yashovchi aholidan)

Saydahmedova Nigora Sulaymonovna

Xulosa o‘rnida sayohat darslari davomida insonni tabiat bilan uyg‘unligi, tabiatni muhofaza qilish, odam hayotida o‘simlik va hayvonlarning foydasi va ahamiyati to‘g‘risida bilib olishdi.

## “O‘RMONDAGI MUSHOIRA”

(tasviriy masallar asosida yaratilgan qo‘g‘irchoq tomosha senariysi)

Maktab sahnasida (hatto sinfda ham) bajartirish mumkin.

Badiiy kecha, tadbir, bayramlar o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha, bir qancha turga bo‘linadi. Tasviriy she‘r, qo‘shiq, masal, hajviyalar badiiy kechalarning ajralmas bo‘lagidir. Bu janrlarning teatrlashtirilgan tomoshalarda qo‘llanilishi, tomoshalarning tomoshaviylikni, badiiy kechalarning ta‘sirchanligini oshiradi.

Badiiy kechalar, sahna ko‘rinishlari ssenariysi ustida ish olib borilganda, muallif ilgari surgan g‘oyani chuqur tahlil qilib, oliy maqsadni aniqlashda, falsafiy g‘oyalarni namoyon etishda eng ta‘sirchan vositalarni tanlab olish muhimdir. Muhammad Yusuf qalamiga mansub “O‘rmondagi mushoira” (Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1984, 13 июль 28-сон. – Б. 6.) hajviyasi sahnalashtirildi. Tomoshabinda voqealarga mos (shoir she‘ri bilan aytilgan) qo‘shiqlarning ishlatilishi tomoshaviylik va ta‘sirchanlikni yanada oshirishga yordam berdi. Bu ishlanma shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan kecha, tadbir, bayramlarda va adabiyot darslarida metodik tavsiya bo‘lib xizmat qiladi.

**ISHTIROKCHILAR:**

1. Arslon.
2. Ayiq.
3. Toshbaqa.
4. Qurbaqa.
5. Tulki.
6. Olmaxon.
7. Boyqush.
8. Qarg‘a.
9. Chiyabo‘ri.
10. Maymun.
11. Quyon.

Musiqa. (“O‘ksimagin, o, yurak” qo‘shiq) O‘rmon ko‘rinishi. Sahnada aytuvchi ko‘rinadi.

**Aytuvchi:** O‘rmon hokimi Arslonning she‘r yozishga havasi baland ekan. U jamiki hayvonlarni to‘plab, bir mushoira o‘tkazishga qaror qilibdi. “Hammangga bir hafta muxlat, – debdi sher.

1. Bittadan she‘r yozib kelib, o‘qib berasan. Mushoira g‘olibiga mukofot tayin...”

**Atrofdan har xil hayvonlar boshlarini chiqarib, quloq soladilar. Birlariga imo-ishora bilan shov-shuv qilishadi.**

**Aytuvchi:** Bu xayrli ishga Ayiq mutasaddi etib tayinlanibdi. U hammadan burun Toshbaqaga telegramma yuborib, mushoiraga kechikmay kelishini so‘rabdi.

O‘zi bekorchi darrandalarni yig‘ib, keng bir sayhonlikdan joy tayyorlashga kirishibdi.

Aytilgan kun o‘rmondagi hayvonlarning hammasi sayxonlikka to‘planibdi.

**So‘ng aytuvchi chiqib ketadi. Sahna yorishadi. Qushlar ovozi eshtiladi. Birin-ketin mehmonlar kirib kelishni boshlashadi. G‘ala-g‘ovur avjiga chiqadi. Shu payt Arslonning ovozi keladi. Hamma hayvonlar birdaniga jim bo‘lib qoladi. Hamma hayvonlar qarsak chalib, hushtak chalib kutib olishadi.**

Arslon baland to‘nka ustiga chiqib, maymoqqa ishora qilibdi:

**Arslon:** – Boshla!

**(Ichkaridan turib gapiradi) Aytuvchi:** Ayiq zoti sinchkov bo‘ladi. U qo‘lini orqasiga qilib yig‘ilganlarni ko‘zdan kechirib yurib, bir chetda ko‘zini jovdiratib o‘tirgan Qurbaqani ko‘rib qolibdi.

**Ayiq:** – Sen nima qilyapsan bu yerda?

**Qurbaqa:** – She‘r o‘qishga keluvdim,  
– debdi Qurbaqa yerga qarab.

**Ayiq:** – shu bechora ham bir umid bilan kelgan

– deb, Arslonshohdan izn so‘rabdi. Sherning mardligi tutib:

**Sher:** – “Mayli, suvsirab o‘lib qolsa, tovoniga qolmaylik, she‘rini o‘qisin-u botqog‘iga ketaversin”, – deb ruxsat beribdi.

**Aytuvchi:** Shunday qilib mushoirani Qurbaqa boshlaydigan bo‘pti. Maydon to‘la jonzot, hammaning ko‘zi unda, Qurbaqa esa shoshilmay Ayiqning o‘ng yelkasiga chiqib, tomog‘ini qirib olib, qiroat bilan she‘r o‘qishga tushibdi.

### **Qurbaqa : CHUMOLI**

Chumolini to‘xtatdim,

Vaq-vaqa.

Xumkallaga o‘xshatdim,

Vaq-vaqa.

Beling muncha ingichka,

Vaq-vaqa.

Dam olgin dedim picha,

Vaq-vaqa.

Chu-mo-lich-ka...

Tolmagina belingdan,

Vaq-vaqa.

Har ish kelar qo'lingdan,

Vaq-vaqa.

Turishing tirik g'uncha,

Vaq-vaqa.

Yuzing shirmoyi kulcha,

Vaq-vaqa.

**Aytuvchi:** U she'rini tamomlab, Ayiqning yelkasidan sakrab yerga tushib, Arslonga ta'zim qilibdi. Arslonshoh esa unga qiyo ham boqib qo'ymabdi. She'ning o'zi-ku shohga manzur bo'libdi, biroq mavzu yoqmabdi. Qandaydir qumursqalar haqida ham yozishaveradimi bularing, degandek, Ayiqqa o'qrayib qarab qo'yibdi-da, miq etmay o'tiraveribti. Shohga yoqmagan she'rga kim ham qarsak chalardi, deysiz. Hamma jim. Qurbaqa mulzam bo'lib davradan chiqib ketayotganida Tulki maydonga tushib, Arslonga ta'zim qilibdi:

**Tulki:** – Janobi oliylari, izn etsalar, endi o'zim she'r o'qisam...

**Aytuvchi:** Arslon yuzini teskari o'giribdi. Ayiq buni o'zicha tushunib, Tulkining ketiga bir tepibdi:

**Ayiq:** Qiyshanglamay joyingga borib o'tir, bilamiz sening she'rlaringni. Sen eng oxirida o'qiysan.



**Aytuvchi:** Tulki tepki tushgan joyini silab, bir chekkaga chiqib cho‘kibdi. Ichida Ayiqni rosa so‘kibdi. She’r o‘qish navbati esa Olmaxonga tegibdi.

**Olmaxon: AYLANAMAN**

Baland-baland butoqlar,  
Aylanaman,  
Men ularni quchoqlab  
Aylanaman.  
Kaftim to‘la qadoqlar,  
Aylanaman,  
Qo‘ynim to‘la yong‘oqlar,  
Aylanaman.  
She’rim tamom, o‘rtoqlar,  
Aylanaman.  
He-y!..

**Aytuvchi:** Olmaxonning qo‘shig‘i ham ko‘pchilikka yoqmabdi. Ko‘plarga qo‘shiqning ohangi yoqsa ham mazmuni manzur bo‘lmabdi. Qandaydir yengiltaklik bilan yozilgandek tuyulipti. Jiddiy she’rlar tarafdori bo‘lgan Ayiq Olmaxonning qulog‘idan cho‘zib davradan chiqarib yuboribdi:

**Ayiq:** Bor, aylanaver, suyuqoyoq!

**Aytuvchi:** Ayiq she’r o‘qishga Boyqushni taklif qilibdi. Boyqush kechasi bilan uxlamay doston yozib kelgan ekan. Ayiq uning dostonini ko‘rib qo‘rqib ketibdi:

**Ayiq:** – Boshqa qisqaroq she’ring yo‘qmi? Mayli, tashlab ketaver, keyin o‘qirman. Yaxshi bo‘lsa, mukofot seniki, yomon bo‘lsa, ko‘zingni o‘yvolaman...

**Aytuvchi:** She’r o‘qishga qarg‘a taklif etilibdi.

**Qarg'a: MUHABBAT**

Qar-rr-r.

Qayt, sevgilim!

Ayt, sevgilim!

Ha-yy-t, sevgilim!

Qaytmasang sadqai sar-rr...

Ov, muhabbat!

Yuraginga oshno dard.

Otib yuborarman poyingga,

Ko'kragimdan uni yulib shart.

No...

Qar-rr-r!

O'rganinglar

Yetar!

**Aytuvchi:** She'rni tinglab, Arslon cho'zib pishqirib qo'yibdi. Bu uning durust degani ekan. Rosa qarsakvozlik bo'пти. Qarg'ani novator shoir deb ko'klarga ko'tarishibdi. She'r o'qishga esa endi Chiyabo'ri taklif qilinibdi.

**Chiyabo'ri: MANZARA**

Kuzak kelib o'rmonga

Sal sovuq tushib qoldi.

Kuchuklar bor tomonda

Qovunlar pishib qoldi.

Sher xo'p desa, u yoqqa

Bizlar bir borib kelsak.

Yarmini olib kelsak,

Yarmini yorib kelsak.

Qovunlarni aytaman –

Qovunlar pishib qoldi...

**Aytuvchi:** Chiyabo‘rining she’ri Arslonga yoqqandek bo‘pti. U qarsak chalibdi. Buni ko‘rgan Ayiq shoqolning yelkasiga qoqib qo‘yibdi: “Durust, ancha qo‘ling kep qopti, yozaver, jiyan...”

Endi she’r o‘qish navbati Maymunniki ekan. U biron daraxtning ustiga chiqib o‘qimoqchi ekan, Ayiq unamabdi.

**Ayiq:** Hamma yerda o‘qidi. Sening hech kimdan ortiq joying yo‘q.

**Aytuvchi:** Maymun u bilan tortishib o‘tirishni o‘ziga ep ko‘rmay she’rni boshlabdi.

### **MAYMUNNING SHE’RI:**

She’rdi o‘qi dedilar,

She’rdi bo‘lsa, she’rdir-da.

Yerda o‘qi, dedilar,

Yerda bo‘lsa yerda-da.

Bizning taqdir o‘rmonzor,

Bunda yaxshi-yomon bor.

Yaxshilarga yo‘ldosh qil,

Yomonlarga qilma xor.

Olib qalam, qog‘ozdi

Maymun bugun she’r yozdi.

Yaxshilar uqib oling,

Mag‘zini chaqib oling...

**Aytuvchi:** Maymunning she’rini tinglab hamma sukutga cho‘kibdi. Arslon xo‘rsinib, peshanasiga bir shapati urib, boshini chayqab qo‘yipti:

**Arslon:** Yaxshi-i-i!..

**Aytuvchi:** Ayiq lapanglab kelib qo‘lini siqib qo‘ymoqchi bo‘lgan ekan, Maymun ko‘nmabdi:

**Maymun:** – qo‘lni ishdan chiqarasan, maymoq.

**Aytuvchi:** Lekin shuncha she‘r o‘qilgan bo‘lsa ham, Arslonga rosmana yoqadigani bo‘lmapti. Ayiq endi menga ham gap tegadigan bo‘ldi, deb xafa holda davra aylanib yurib, Tulkini ko‘rib qolibdi. U bir chetda nimalarnidir pichirlab turgan ekan. Tulki Ayiqning taklifini kutmay jilpanglab kelib Arslonga ta‘zim qilibdi:

**Tulki:** - Padari buzrukvorim, yo‘q demasalar, endi o‘zim she‘r o‘qisam...

**Aytuvchi:** Arslon jimgina bosh irg‘ab qo‘yibdi: Mayli, o‘qi.

**Tulki: MADHIYA**

Saharlari kelodur  
Qulog‘imga xush navo.  
Bu Sizning ovozingiz  
Qadrdonim, Sher bova.  
Kuylang avji pardada,  
Musiqqa dilga davo.  
Uzilmasin toringiz,  
Otaxonim, Sher bova.  
Men kim?  
Men bir tulkiman.  
Oldingizda kulkiman.  
Kim desangiz men shuman,  
Mehribonim Sher bova,  
Sizga ushbu she‘r, bova!..

**Aytuvchi:** Tulkining she‘ri tugashi bilan o‘rmonni dahshatli hayqiriq larzaga solibdi. Mushoiraga to‘plangan hayvonlarning o‘takasi yorilib tumtaraqay bo‘p ketibdi. Arslonga she‘r qattiq ta‘sir qilib bo‘kirib yuborgan ekan! Ayiq rosa bir soat sarson bo‘lib, yalinib-yolvorib hammani yana yig‘ib kelibdi.

Arslon hammaning ko'z o'ngida tulkini bag'riga bosib ikki yuzidan cho'lpillatib o'pibdi. Rosa qarsakvozlik bo'пти. Tulkining madhiyasini yuz nusxada mashinka qildirib, o'rmondagi jamiki hayvonlarga tarqatishga qaror qilinibdi. Mushoira g'olibi Tulkiga sovg'a-sovrin topshirilib, hamma uy-uyiga tarqaymiz deb turganida davraga Toshbaqa yetib keпти:

**Toshbaqa:** – Azizlar, men ham she'r o'qisam deb zudlik bilan yetib keldim...

**Aytuvchi:** Ayiq Arslonga qarabdi, u esa mayli o'qisin, atay keldi, deb joyiga cho'kibdi.

– She'ringning oti nima? – deb so'rabdi **Ayiq** undan.

– Shiddat, – debdi **Toshbaqa** bo'ynini cho'zib.

**Ayiq:** Mayli o'qi, faqat cho'zma, hamma charchadi...

**Toshbaqa: She'r**

Mening bitta ukam bor,

Yugurgani-yugurgan.

O'z ko'yicha nenidir

Qidirgani-qidirgan.

Xulosa

Nima bo'пти, tek turmas

Tor kosada siqilib.

Ba'zilardek loqayd, bo'sh

Ulg'aymasin ishqilib...

**Aytuvchi:** Toshbaqaning she'ri hech kimga yoqmabdi. Hayvonlar charchab turgani uchun yo o'qishni qoyilatolmagani uchunmi she'r e'tiborsiz qolibdi. Buning ustiga kimdir bir chetda cho'zilib yotgan Qurbaqani ko'rib qolib yig'lashga tushibdi. Arslon bo'kirgan payti yuragi yorilib, o'lib qolgan ekan boyaqish. Ayiq hayvonlarga tasalli beribdi:

**Ayiq:** Yig'ini bas qiling!

**Aytuvchi:** Tulki shu kuni o'rmonda katta ziyofat beribdi. Ziyofat chog'i Quyon ko'proq ichib mast bo'lib qolib "Tulkiga she'rni men yozib berganman", deb maqtanibdi. Hech kim uning gapiga ishonmabdi, albatta, faqat Ayiq Quyonni yoniga chaqirib qulog'iga bir nima deb shivirlabdi. Maymunning aytishicha, shu kunlarda Ayiq bilan Quyon hamkorlikda tarixiy roman yozishga kirishgan emish. Bu mish-mishning rost-yolg'onligini esa kelajak ko'rsatadi.



## SHOIR MUHAMMAD YUSUFNING “JAYRON” SHE’RINI TAHLIL QILISH. (SINFDAN TASHQARI O‘QISH)

**Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarning she’rni ifodali o‘qish va badiiy asarni tahlil qilish malakasini takomillashtirish; “Jayron” she’ri tahlili vositasida asarga xos poetik tafakkur tarzini; lirik qahramon kechinmalari mazmunini o‘z sezimlariga tayanib yoritish. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini o‘stirish; shoir uslubi va mahorati qirralarini ochib berishdan iborat.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi** shoirning tabiatga daxldorlik tuyg‘ulari bilan yosh avlodni she’r bandlari orqali o‘quvchilarda tabiat, millat va yurt oldida mas’ullik, burchini his qilish; kelajak avlod uchun yaratish, intilish, kurashchanlik xislatlarini, bunyodkorlik ishlarini meros qoldirish tuyg‘usini kamol toptirish tashkil etadi.

O‘quvchilarni faollashtiruvchi metodlar: “Yodingdami?”, “Muammoli ta’lim”, “Klaster”.

Dars jihozlari: darslik, Muhammad Yusufning asarlari to‘plamlari, shoir portreti, bukletlar.

Dars jarayoni loyihasi.

Dars jarayonini loyihalashtirishda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajalari, faolligi, qiziqishlari kabi har bir sinfga (sinfdagi o‘quvchilar saviyasi, ruhiyati, intilishlari va x.k.) xos xususiyatlar e’tiborga olinadi.

“Yodingdami?” metodini qo‘llashda darslikdagi savollardan foydalanish ham mumkin. Muammoli savollarni o‘qituvchi o‘zi tuzib kelgani maqul.

1. Inson tabiatdan ayri yashashi mumkinmi?
2. Qon yig‘latdi qaysi bag‘ri tosh?” – deyish orqali shoir nimaga ishora qilmoqda?
3. Kel, tug‘ishgan og‘ang bo‘lay man, - deganida nimani anglayapsiz?
4. Hayvon va inson o‘rtasidagi do‘stlik haqida kino yoki multfil‘m ko‘rganmisiz?

5. Uyda qanday hayvonlarni boqasiz? Ularga munosabatingiz haqida gapirib bering.





Chizma kataklariga joylashtirilgan she'r misralarini tahlil qilib, o'quvchilar poetik fikr mantiqiga ko'ra strelkalar bo'ylab fikran harakat qiladilar. Alohida ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosini izohlaydilar. Badiiy umumlashma tomon yetib borilgach, shoirning tabiat va jonzotlar haqidagi fikrlari sharhlanadi va muayyan xulosaga kelinadi.

She'r qismlari bo'yicha qamrovli tahlil vositasida o'quvchilar shoir ruhiyati, o'y-kechinmalari mazmunini anglab boradilar. Shoir qiyofasi ular ko'z o'ngida gavdalanadi. Uning kechinmalari ifoda etgan ma'nolarni har bir o'quvchi o'zi qanday his qilib anglagan bo'lsa, shunday izohlashga urinadi, fikrlar rang-barangligi ta'minlanadi, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Uning ijodi haqida gap ketganda, ko'pincha qo'shiqlarini tilga oladilar. U qo'shiq yozgan ham, o'zining qo'shiqchi shoir hisoblagan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda o'ta jiddiy, ammo xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchunmi, hofizlar ularni qo'shiqqa solib yuradilar. Bu qo'shiqdar qo'shiqchilikni ham baland pog'onalarga olib chiqdi. Qancha-qancha xonandalarni elga tanitdi. She'rni o'qir ekanmiz o'z-o'zida musiqasi qulog'imiz ostida yangray boshlaydi. Chunki, lirik asarlar musiqaga tez muvofiqlashadi. Asar mohiyatini tushuntirishda musiqa faniga bog'lab dars o'tilsa, bola tafakkurida o'chmas bo'lib joy olishiga turtki bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adabiyot: 8; darslik / Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.
2. Adabiyot: 8; darslik / Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. – Toshkent: Fofur Fulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 352 b.
3. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf uchun darslik-majmua. I qism. 4-nashri, I-chorak – 150 b.
4. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 351 b.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 402 b.
6. Sinfdan tashqari o‘qish kitobi: 2-sinf uchun o‘quv qo‘llanma/ tuzuvchi: Avvalboyeva I. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2019. – 160 b.
7. Муҳаммад Юсуф. Бевафо кўп экан. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 211 б.
8. Yusuf Muhammad. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019.
9. Yusuf Muhammad. Xalq bo‘l, elim, –Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
10. Юсуф Муҳаммад. Бевафо кўп экан. – Жиззах, 1991. – 33 б.
11. Юсуф Муҳаммад. Сайланма.– Тошкент: Шарқ, 2019.
12. Юсуф Муҳаммад. Таниш тераклар. – Тошкент, 1985. – 68 б.
13. Юсуф Муҳаммад. Элимда алёрим қолур. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – Б. 173-181.
14. Rabbonayeva D. O‘quvchilarning matnini o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotida belgilngan matnini mezonlari // Xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konfrensiya. – Namangan, 2020. – B. 117.



